

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.04.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

PARDAYEV ASROR ABDUJABBOROVICH

**QASHQADARYO VOHASI AHOLISINING KUNDALIK HAYOTI VA
IJTIMOIY TURMUSH SHAROITI (1985–2021 yy.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2026

Fan doktori dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии
Content of the abstract of dissertation of Doctor of Sciences

Pardayev Asror Abdujabborovich

Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoiti
(1985–2021 yu.) 5

Пардаев Асрор Абдужабборович

Повседневная жизнь и социально-бытовые условия населения
Кашкадарьинского оазиса (1985-2021 гг.)..... 35

Pardaev Asror Abdujabborovich

Daily life and social living conditions of the population in Kashkadarya oasis
(1985-2021)..... 69

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 75

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.04.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

PARDAYEV ASROR ABDUJABBOROVICH

**QASHQADARYO VOHASI AHOLISINING KUNDALIK HAYOTI VA
IJTIMOIY TURMUSH SHAROITI (1985–2021 yy.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.DSc/Tar151 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasiga (www.karsu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim (portali www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Rajabov Qahramon Kenjayevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nurjanov Sabit Uzakbaevich
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Kabulov Eshbolta Atamuratovich
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Eshquvvatov Valiqlul Turdiyevich
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Tar.04.04 raqamli ilmiy Kengashning 2026-yil "14" 11 soat 14 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230110, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99861) 223-60-49; e-mail.: karsu.info@edu.uz.). Qoraqalpoq davlat universiteti.

Dissertatsiya matni bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (402 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230110, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99861) 223-60-49).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "21" 4 kuni tarqatildi
(2026-yil "21" 4 dagi 3 - raqamli reestr bayonnomasi)



M.A. Karlibayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

H.M. Otegenov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.A. Koshanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda “Jahon tarixi” fanida “kundalik hayot tarixi” deb nomlangan tadqiqotlarga misli ko‘rilmagan qiziqish kuzatilmoqda. Kundalik hayot tarixi oddiy odamlarning turmush tarzi, manfaatlari, ehtiyojlari, kundalik hayotini diqqat bilan ko‘rib chiqish so‘ngi o‘n yilliklardagi tarixiy tadqiqotlarning asosiy va eng istiqbolli yo‘nalishiga aylanmoqda. Kundalik hayot tarixi – bu tarixiy bilimlarning nisbatan yangi paradigmasi bo‘lib, uning tadqiqot obyekti tarixiy, madaniy, siyosiy, etnik va konfessional kontekstdagi insonning kundalik turmushiga daxldor voqea hodisalar hisoblanadi.

Kundalik hayot tarixi yangi ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lishiga qaramay, bugungi kunda dunyoning bir qator yetakchi oliy ta‘lim muassasalari hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida mazkur yo‘nalishda salmoqli ilmiy ishlar qilinmoqda. Germaniya, Fransiya, AQSh dagi gumanitar institutlari, Rossiya Fanlar akademiyasining Rossiya tarixi institutidagi markazlarda aholi barcha qatlamining va har bir kasb egalarining kundalik hayoti tarixi tadqiq etilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda asosan aholining turmush tarzi, ularning hayotiga yangi texnologiyalarning kirib kelishi, oilaviy munosabatlar, tibbiyot va madaniyat muassasalarining aholi hayotida tutgan o‘rni kabi masalalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yashovchi har bir aholining moddiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilash, turmush darajasini yanada ko‘tarishga qaratilgan davlat siyosati yuritilmoqda. Jumladan, so‘nggi yillarda hududlarda yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish, xalq turmush darajasi va daromadlarini oshirish, xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish hamda ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga alohida e‘tibor berilmoqda. Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi”¹ degan fikr ilgari surilmoqda. Shu ma‘noda 1985–2021-yillardagi Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoitini o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda aholining kundalik hayoti va unda yuz bergan o‘zgarishlar tarixi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF–5386-son “Obod qishloq” dasturi to‘g‘risidagi, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi² farmonlari, 2020-yil 8-oktabrdagi “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F–5598-sonli farmoyishi³, hamda sohaga oid boshqa

¹ Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – B. 15.

² Yangi O‘zbekiston. 2022-yil 1-fevral.

³ Xalq so‘zi. 2020-yil 9-oktabr.

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Aholining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoiti va tarixini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Markaziy Osiyoni tadqiq qilish Fransuz markazi (French Institute for Central Asian Studies (IFEAC), Fransiya), Center for Russian and East European Studies, Illinois University (Chicago), Harvard University (AQSh), Russian Research Institute (AQSh), The Central Asia Program (CAP) at George Washington University (AQSh), The Davis Center for Russian and Eurasian Studies at Harvard University (AQSh), The Seoul National University Asia Center (SNUAC) (Koreya Respublikasi), The Institute for Asian and African Studies of Humboldt University (Germaniya), Stanford University School of Medicine (AQSh), Tarix instituti (O'zbekiston) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Dunyoda olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar olingan: sovet davrida O'rta Osiyoda ijtimoiy hayot va u bilan bog'liq muammolar tahlil etilgan (Harvard University, AQSh), O'zbekistonning janubiy hududlarida aholining ijtimoiy ta'minot darajasi, sohaga tegishli ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlar keltirilgan (Russian Research Institute, AQSh); sovet hokimiyatining o'lkada olib borgan ma'muriy siyosati natijasidagi iqtisodiy jarayonlar, yuzaga kelgan ijtimoiy muammolar va ularni bartaraf etish imkoniyatlariga doir masalalarga yechimlar taklif qilingan (The Central Asia Program (CAP) at George Washington University AQSh); Markaziy Osiyo mintaqasida aholi salomatligini muhofaza qilish tadbirlarining olib borilishi, ekologik vaziyatning yomonlashuvi natijasida turli kasalliklarning keng tarqalishi, uning oldini olish bo'yicha sobiq Ittifoq tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar natijalari tahlil etilgan (Stanford University School of Medicine).

G'arb mamlakatlarida chop etilgan ilmiy adabiyotlar, XX asrning 80-yillari o'rtalaridan boshlab Rossiyada tarixiy tadqiqotlarda "kundalik hayot" tushunchasi ishlatila boshlanishiga sabab bo'ldi. Dastlab kundalik hayot tarixini medievistlar va xotin-qizlar masalasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar o'rgana boshladi.

Jahonda aholini, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlamini himoya qilish tizimini rivojlantirish, uning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: himoyaga muhtoj bo'lgan qatlamni ijtimoiy ta'minot bilan ta'minlash borasidagi mexanizmlarni takomillashtirish; aholi salomatligini, ayniqsa, ayollar va yosh bolalar salomatligini muhofaza qilish; aholini turar-joy

bilan ta'minlash, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish, pensionerlar va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, nogironligi bo'lgan shaxslarni himoya qilish va h.k.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mazkur mavzuga oid tadqiqotlar Dissertatsiyaning birinchi bobida maxsus o'rganilgan. Unda muammoga oid adabiyotlar 3 guruhga bo'lingan: birinchi guruhga mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari, ikkinchi guruhga mavzuga oid monografiyalar, voha va tumanlar tarixiga oid mahalliy mualliflar tomonidan yozilgan asarlar, uchinchi guruhga xorijiy mualliflar tomonidan e'lon qilingan tadqiqot ishlari kiradi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirish muammolarini kompleks tadqiq etish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: 1985–2021-yillardagi Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoiti tarixini ilmiy nuqtai nazardan yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

mavzuning manbashunosligi va tarixshunosligi masalalarini tahlil qilish;

Qashqadaryo vohasidagi demografik ahvol va aholi sonining o'sish dinamikasini birlamchi manbalar asosida asoslash;

aholi o'rtasidagi migratsion jarayonlarning aholi kundalik hayotiga ta'sirini yoritish;

Voha yuqori va quyi zonalar aholisining kundalik hamda xo'jalik hayotidagi o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;

Qashqadaryo vohasi aholisining mehnat va maishiy sharoitlarini yaxshilash borasida amalga oshirilgan ishlarni yoritib berish;

Voha aholisining daromadlari va xarajatlarini tavsiflash;

aholining xalq iste'moli mollari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganligini tahlil qilish;

aholining kundalik hayotida ta'limning tutgan o'rnini ko'rsatib berish;

Sog'liqni saqlash tizimining aholi kundalik hayotiga ta'sirini tahlil qilish;

aholining kundalik hayotida madaniy dam olish maskanlari faoliyatini ko'rsatishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyatida 1985–2021-yillardagi aholining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoitining tarixi belgilangan.

Tadqiqotning predmetini demografik va migratsion jarayonlar, aholiga yaratilgan maishiy sharoitlar, aholi daromadlarining o'sishi, oziq-ovqat va xalq iste'mol mollari bilan ta'minlanganligi, viloyatda ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi muammolar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tadqiqotlar olib borishning tarixiylik, obyektivlik, ilmiylik, qiyosiy tahlil, tarixiy-xronologik, analiz va sintez, aniq

tarixiy sharoitda raqam va dalillarga tayanish, ogʻzaki tarix kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qashqadaryo viloyatining yuqori va quyi hududlarida aholi turmush tarzi va xoʻjalik faoliyatida bir qator oʻziga xosliklar kuzatilib, XX asrning 80-yillarida faqat paxtachilik bilan shugʻullanib kelgan yuqori hududlar aholisi, bugungi kunda asosan bogʻdorchilik, uzumchilik bilan, quyi hudud aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shugʻullanishi, viloyat aholisining boshqa hududlarga nisbatan demografik tarkibdagi oʻzgarishlar, shahar aholisining qishloq aholisiga nisbatan ortishi dinamik oʻzgarishlarda namoyon boʻlganligi, mustaqillikning dastlabki yillarida ishsizlikning ortishi natijasida XX asrning 90-yillaridan viloyatda mehnat migratsiyasi aholi kundalik hayotiga taʼsir koʻrsatganligi asoslangan;

Mustaqillik arafasida Qashqadaryo viloyati aholisining mehnat va maishiy sharoitlari qiyin ahvolda boʻlganligi, umumiy aholining taxminan 24,1 foizi ishsiz boʻlgan, qishloq joylardagi aholining tabiiy gaz bilan taʼminlanish darajasi juda pastligi, shuningdek, koʻplab qishloqlar toza ichimlik suvi bilan taʼminlanmaganligi, mustaqillik yillarida esa bandlikka koʻmaklashish markazlari faoliyatini yoʻlga qoʻyilishi, mehnat yarmarkalarining tashkil etilishi, Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha Harakatlar strategiyasining ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari doirasida koʻrilgan chora-tadbirlar natijasida ishsizlik darajasi pasayganligi, aholining kommunal xizmatlar, jumladan, tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan taʼminlanish koʻrsatkichlari yaxshilanib, 2016-yildan boshlab barcha gazlashmagan aholi gaz balonlari bilan taʼminlanishi natijasida 64,8 foizdan oshganligi statistik tahlillar va ogʻzaki tarix maʼlumotlari asosida koʻrsatib berilgan;

Qashqadaryo viloyati aholisining daromadlari va xarajatlari yordamchi xoʻjalik bilan shugʻullanishi natijasida daromadlarining ortishi, daromadning aksar qismi kundalik xarajatlarga ishlatilishi, 1985–1990-yillarda aholini xalq isteʼmol mollari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlashda kamchiliklar mavjudligi, 1992-yildan bozor sharoitlariga oʻtish davrida aholining ijtimoiy himoyasini taʼminlash maqsadida ularga oziq-ovqat va turli xomashyo mahsulotlari sotishning imtiyozli yoʻllarini ishlab chiqilishi qator ijobiy holatlarga olib kelganligi, xususan, oʻtgan asrning 90-yillari boshlarida un, makaron mahsulotlari, guruch, oʻsimlik moyi, choy, shakarqand, tuxum, goʻsht va goʻsht mahsulotlari, kir sovun, ip-gazlama matolarni sotishda cheklangan narxlar belgilanib, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga ularni imtiyozli narxlarda sotish yoʻllari ishlab chiqilganligi, keyingi yillarda aholining real daromadlari hamda xarid qobiliyatini ortgaligi, shuningdek, kam taʼminlangan oilalar hamda aholi qatlamlari oʻrtasidagi daromadlar farqini qisqartirish borasida qilingan ishlar mavjud maʼlumotlar asosida dalillangan;

Qashqadaryo viloyatida mustaqillikning dastlabki yillarida umumtaʼlim va kasb-hunar maktablari, oliy taʼlim muassasalaridagi moddiy-texnika bazalari nihoyatda achinarli holatdaligi, soʻnggi yillarda viloyatdagi umumtaʼlim maktablari, oʻrta maxsus va oliy oʻquv yurtlarining ham moddiy-texnika bazasi tubdan

yangilanganligi, ta'lim sohasidagi islohotlar natijasida maktablarning mavqeyi yanada mustahkamlanganligi, maktabgacha ta'lim tizimida bolalar qamrovi oshganligi, bundan tashqari, viloyatdagi sog'liqni saqlash tizimining ahvoli, sohadagi muammo va kamchiliklar, voha iqlim sharoitidan kelib chiqadigan kasalliklar va ularning bartaraf etilishi, hududlardagi tibbiy muassasalarning holati, sohada amalga oshirilgan ishlarning viloyat hayotiga ta'siri ko'rsatib berilgan;

Sovet davrida O'zbekistonda, jumladan, Qashqadaryo viloyati shaharlari madaniy hayotida ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'lganligi, lekin tumanlarda tashkil etilgan madaniy muassasalarda yetarli sharoit yaratilmaganligi, ular qoshidagi ansambllarning faoliyati qoniqarli emasligi, mustaqillik yillarida viloyat va tumanlarda faoliyat olib borgan madaniyat uylari qaytadan tashkil etilganligi, viloyatdagi barcha istirohat bog'lari qaytadan rekonstruksiya qilinganligi, natijada aholi kundalik hayotida madaniyat uylari va istirohat bog'lari alohida o'rin tutadigan maskanlarga aylanganligi mavjud ma'lumotlar ma'lumotlar asosida yoritib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, avvalo, 1985–2021-yillarda Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoitiga oid materiallar davriy izchillikda, muammoviy yondashuv asosida tahlil qilindi, ularning sabab va oqibatlari aniqlandi hamda tegishli xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati keltirilgan materiallar va xulosalar 1985–2021-yillarda Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayotiga doir ilmiy tadqiqotlar olib borishda, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimidagi ijtimoiy va iqtisodiy fanlar bo'yicha maxsus kurslar tashkil etishda hamda ushbu o'quv kurslaridan o'quv qo'llanma va darsliklar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Dissertatsion tadqiqot Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti tarixiga tegishli arxiv materiallari, statistik ma'lumotlar, davriy nashr va og'zaki tarix materiallari asosida amalga oshirilganligi bilan asoslanadi. Birinchi guruh materiallari har xil arxivlardan yig'ilgan va respublikaning davlat arxivlarida to'plangan. Manbalarning keyingi guruhi gazeta va jurnallardan, rasmiy statistik ma'lumotlar va rasmiy hujjatlar to'plamlaridan iborat, ular tadqiqot natijalarining ishonchliligini tasdiqlovchi qiyosiy tahlilni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati 1985–2021-yillarda Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoitidagi muhim o'zgarishlar va jarayonlarning arxiv hujjatlari asosida ochib berilganligi hamda muammoga oid metodologik-uslubiy yondashuvlar va nazariy xulosalarni takomillashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Qashqadaryo vohasida 1985–2021-yillardagi aholining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoiti bo'yicha olingan natijalardan xalqimizning sovet va mustaqillik davridagi tarixini tadqiq etishda va

“O‘zbekiston tarixi”, “O‘zbek davlatchiligi tarixi”, “Qashqadaryo vohasi tarixi”, “Etnologiya” kabi fanlarni o‘qitishda foydalanish uchun qo‘llanma va darsliklar yaratishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoitiga (1985–2021-y.) oid ishlab chiqilgan ilmiy natijalar va takliflardan:

Qashqadaryo viloyatining yuqori va quyi hududlarida aholi turmush tarzi va xo‘jalik faoliyatida bir qator o‘ziga xosliklar kuzatilib, XX asrning 80-yillarida faqat paxtachilik bilan shug‘ullanib kelgan yuqori hududlar aholisi, bugungi kunda asosan bog‘dorchilik, uzumchilik bilan, quyi hudud aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanishi, viloyat aholisining boshqa hududlarga nisbatan demografik tarkibdagi o‘zgarishlar, shahar aholisining qishloq aholisiga nisbatan ortishi dinamik o‘zgarishlarda namoyon bo‘lganligi, mustaqillikning dastlabki yillarida ishsizlikning ortishi natijasida XX asrning 90-yillaridan viloyatda mehnat migratsiyasi aholi kundalik hayotiga ta‘sir ko‘rsatganligiga oid ma‘lumotlardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqdimot” ko‘rsatuvi ssenariyini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 13-noyabrdagi 01-44-428-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada tomoshabinlarning Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti tarixi bo‘yicha yangi ma‘lumotlarga va teletomoshibinlarda viloyat aholisining 1985–2021-yillardagi hayoti haqida taassurotlarga ega bo‘lish imkoniyatini bergan;

Mustaqillik arafasida Qashqadaryo viloyati aholisining mehnat va maishiy sharoitlari qiyin ahvolda bo‘lganligi, umumiy aholining taxminan 24,1 foizi ishsiz bo‘lgan, qishloq joylardagi aholining tabiiy gaz bilan ta‘minlanish darajasi juda pastligi, shuningdek, ko‘plab qishloqlar toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanmaganligi, mustaqillik yillarida esa bandlikka ko‘maklashish markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi, mehnat yarmarkalarining tashkil etilishi, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari doirasida ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida ishsizlik darajasi pasayganligi, aholining kommunal xizmatlar, jumladan, tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta‘minlanish ko‘rsatkichlari yaxshilanib, 2016-yildan boshlab barcha gazlashmagan aholi gaz balonlari bilan ta‘minlanishi natijasida 64,8 foizdan oshganligiga oid ilmiy natijalardan Xalqaro “Oltin Meros” xayriya jamoat fondi dasturlarini bajarishda foydalanilgan (Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondining № 01-23/22-04-24-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada Qashqadaryo viloyati aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoiti haqida juda qimmatli ma‘lumotga ega bo‘lishiga xizmat qilgan.

Qashqadaryo viloyati aholisining daromadlari va xarajatlari yordamchi xo‘jalik bilan shug‘ullanishi natijasida daromadlarining ortishi, daromadning aksar qismi kundalik xarajatlarga ishlatilishi, 1985–1990-yillarda aholini xalq iste‘mol mollari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda kamchiliklar mavjudligi, 1992-yildan bozor sharoitlariga o‘tish davrida aholining ijtimoiy himoyasini

ta'minlash maqsadida ularga oziq-ovqat va turli xomashyo mahsulotlari sotishning imtiyozli yo'llarini ishlab chiqilishi qator ijobiy holatlarga olib kelganligi, xususan, o'tgan asrning 90-yillari boshlarida un, makaron mahsulotlari, guruch, o'simlik moyi, choy, shakarqand, tuxum, go'sht va go'sht mahsulotlari, kir sovun, ip-gazlama matolarni sotishda cheklangan narxlar belgilanib, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga ularni imtiyozli narxlarda sotish yo'llari ishlab chiqilganligi, keyingi yillarda aholining real daromadlari hamda xarid qobiliyatini ortgaligi, shuningdek, kam ta'minlangan oilalar hamda aholi qatlamlari o'rtasidagi daromadlar farqini qisqartirish borasida qilingan ishlar asosida ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023–2024-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida tatbiq etilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 12-avgustdagi 344-sonli ma'lumotnomasi). Natijada joriy etilgan ma'lumotlar aholi ma'naviy saviyasining oshishiga, xalqimizning mehnatsevarligi, mehmondo'stligi, bag'rikengligi kabi fazilatlar haqidagi tasavvurlarning yanada kengayishiga xizmat qilgan.

Qashqadaryo viloyatida mustaqillikning dastlabki yillarida umumta'lim va kasb-hunar maktablari, oliy ta'lim muassasalaridagi moddiy-texnika bazalari nihoyatda achinarli holatdaligi, so'nggi yillarda viloyatdagi umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarining ham moddiy-texnika bazasi tubdan yangilanganligi, ta'lim sohasidagi islohotlar natijasida maktablarning mavqeyi yanada mustahkamlanganligi, maktabgacha ta'lim tizimida bolalar qamrovi oshganligi, bundan tashqari, viloyatdagi sog'liqni saqlash tizimining ahvoli, sohadagi muammo va kamchiliklar, voha iqlim sharoitidan kelib chiqadigan kasalliklar va ularning bartaraf etilishi, hududlardagi tibbiy muassasalarning holati, sohada amalga oshirilgan ishlarning viloyat hayotiga ta'siriga oid ilmiy natijalardan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi dasturida foydalanilgan (Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining 2024-yil 22-oktabrdagi № 01-27/541-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining saylovoldi dasturlarini ishlab chiqish va qabul qilish imkonini bergan.

Bu tahlil qilingan manbalar, xorijiy va ilmiy adabiyotlar, ilmiy asosga ega bo'lgan xulosa va takliflar 1985–2021-yillarda Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoiti tarixini o'rganishga hamda chuqur tahlil qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy konferensiya, jumladan, 6 ta xalqaro konferensiya va 3 ta respublika konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika jurnallari va 3 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilova qismlaridan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 218 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi amalga oshirilgan, maqsadi va vazifalari aniqlashtirilib, obyekt va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari hamda asosiy tadqiqot usullari ko‘rsatib berilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi va uning aprotatsiyasi, ishning hajmi, tuzilishi, e‘lon qilingan ishlar bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mavzuning nazariy–metodologik asoslari hamda manbashunosligi va tarixshunosligi muammolari”** deb nomlangan birinchi bobida muammoning metodologik asoslari, manbashunosligi hamda tarixshunosligi tahlil qilingan.

O‘zbekiston tarix fani oldiga qo‘yilayotgan dolzarb vazifalarni hal qilish uchun jahon tarixshunosligidagi yangi yo‘nalishlarni o‘rganish muhimdir. Shunday yangi yo‘nalishlardan biri “kundalik hayot tarixi” (everyday life history, Alltagsgeschichte, histoire de la vie quotidienne) yo‘nalishi bo‘lib, uning predmeti inson kundalik hayotini turli tarixiy-madaniy, siyosiy, etnik va konfessional kontekstda o‘rganishdir.

Tadqiqotning nazariy–metodologik asoslarini ishlab chiqishda R. Rajapova, D. Alimova, Q. Rajabov, S. Shadmanova, B. To‘raev, A. Sobirov kabi olimlarning asarlaridan foydalanildi⁴.

Tadqiqot muvaffaqiyatli chiqishi uchun tarixiy metodlarni to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda maxsus tarixiy metodlardan xronologik (tadrijiy), sinxron, strukturaviy tizim, og‘zaki tarix, sinergetik fanlararo yondashuv, statistik uslub, analiz va sintez, tizimlilik, analogiya va qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, oddiydan murakkabga, dialektik yondashuv, ijtimoiy yondashuv, tarixiylik, haqqoniylik, muqobil yondashuv, aniqlik, tarixiy manbalarga asoslanish, tizimlilik, uzviylik, xolislik, tarixshunoslik kabi uslublardan unumli foydalanildi.

⁴Turkistan v nache XX veka: k istorii istoikov natsionalnoy nezavisimosti. Nauchnyy redaktor R.Y. Radzhapova. – Tashkent: Shark, 2000. – 672 s.; Alimova D.A. Istorija kak istorija, istorija kak nauka. – Tashkent: Uzbekistan, 2008; Alimova D., Ilxomov Z. Tarix fani metodologiyasi. – Toshkent: Ўzbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018; Rajabov Q. Xalollik va talabchanlik timsoili. – Toshkent: Bodomzor invest, 2021. – 355 b.; Rajabov Q. Ўzbekiston XXI asrda. Birinchi jild. – Toshkent: Shark, 2024. – 750 b.; Shadmanova S. Yuldashov M. Tarixiy tadqiqotlarning metodologiyasi, zamonaviy usullari. – Toshkent: Ўzbekiston, 2019. – 213 b.; Turayev B.O., Ergasheva M.X. Sinergetika. – Toshkent: Navruz, 2017 – 360 b.; Sabirov A. Mустақил Ўzbekiston tarixi. – Toshkent: Akademiya, 2013. – 464 b.; Sabirov A. Ustnaya istoriya v sisteme metodov istoricheskikh issledovaniy i opyt ee primeneniya v Uzbekistane. – Tashkent: Bookmanuprint, 2023. – 280 s.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Qashqadaryo vohasi aholisining 1985–2021-yillardagi kundalik hayoti tarixini turli manbalar asosida xolislik va haqqoniylik tamoyillariga asoslangan holda o‘rganish va qayta yaratish, unutilishgacha borgan yoki unutilgan tarix kemtikligini jonlantirish ilmiy tadqiqot olib borayotgan tarixchilardan jiddiy mas’uliyat talab etadi. Zero, tadqiqotlarning haqqoniyligi va ishonchliligi jamiyat a’zolarining kelajakka bo‘lgan ishonchining oshishiga xizmat qiladi.

Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoiti mavzusining mohiyatini ochib berishda manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan tadqiqot mavzusining manbaviy asosini shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Arxiv hujjatlari va materiallari.
2. Statistik to‘plamlar.
3. Nashr qilingan hujjat va materiallar to‘plamlari.
4. Davriy matbuot materiallari.
5. Og‘zaki tarix materiallari.

Tadqiqotni yozishda birinchi guruhga kiritilgan O‘zbekiston Milliy arxivi, Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, viloyat va tumanlar arxivlarida saqlanayotgan fondlardagi materiallardan keng foydalanildi. Xususan, O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA)da saqlanayotgan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi (M-7-fond), O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi (M-26-fond), O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi (M-38-fond), O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (M-130-fond) materiallaridan foydalanildi. Qashqadaryo viloyat davlat arxiviga tegishli (S-390-fond), (M-687-fond), (142-fond), (S-193-fond), (S-249-fond), (M-703-fond), (285-fond), (567-fond), (728-fond), (683-fond), (538-fond), (658-fond) larida saqlanyotgan sohaga oid hujjatlar va materilallardan foydalanildi.

Muammoni o‘rganish jarayonida, Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivida saqlanyotgan (1-fond), (5-fond), (8-fond), (17-fond), (604-fond), (767-fond), (829-fond), (845-fond), (846-fond), (852-fond), (850-fond), (851-fond), (853-fond), (856-fond), (857-fond), (858-fond), (859-fond), (860-fondlar)da saqlanyotgan hujjatlardan tadqiqotni yoritishda xizmat qiladigan juda qimmatli ma’lumotlar olindi.

Muammoni tadqiq qilish jarayonida ikkinchi guruhga kiritilgan turli yillarda nashr qilingan statistik to‘plamlardan ham keng foydalanildi. Jumladan, 1989-yilda Moskvada nashr qilingan «Население СССР 1988» nomli statistik to‘plam, 1995-yilda nashr etilgan «Узбекистан в цифрах краткий статистический сборник», 2008, 2014, 2015, 2016, 2018, 2019, 2021-yillarda nashr etilgan O‘zbekiston Respublikasining yillik statistik to‘plamlari, 2016–2019-yillarda O‘zbekistonda mehnat va bandlik, Qashqadaryo viloyatining 2021-yil yanvar-dekabr oylariga tegishli statistik axborotnomasi, 2017–2021-yillardagi O‘zbekiston demografik yillik to‘plamlaridagi ma’lumotlardan foydalanildi. Ushbu statistik to‘plamlardan viloyatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari, aholining demografik

ko'rsatkichlari, tug'ilish, o'lim va aholining tabiiy ko'payishi, go'daklar o'limi va sabablari, mehnat resurslari va aholi bandligi masalalari, odamlarning turmush darajasi va daromadlari, maktabgacha va umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari, ulardagi tarbiyalanuvchilar va o'quvchilar soni, sog'liqni saqlash tizimidagi asosiy ko'rsatkichlar haqidagi ma'lumotlar olindi.

Bundan tashqari, tadqiqotni yoritishda uchinchi guruhga tegishli 1999–2022-yillarda nashr qilingan Qashqadaryo viloyatini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy pasportlaridagi juda qimmatli ma'lumotlardan ham foydalanildi.

Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoiti mavzusini yoritishda viloyat va tumanlarning davriy nashrlari hisoblangan gazetalaridan dissertatsiya uchun muhim materiallar olindi⁵.

Og'zaki tarix materiallar manbalarning beshinchi guruhini tashkil etib, unda asosan viloyatning deyarli barcha tumanlarida jamiyatning barcha jabhalarida mehnat qilayotgan 400 kishidan bevosita suhbat natijasida olingan ma'lumotlar va olingan ijtimoiy-so'rovnoma natijalari ilmiy muomalaga kiritilgan. Aholi demografiyasi va migratsiya masalalari mavzusi bo'yicha ham ilmiy tadqiqotlar olib borildi⁶.

Qashqadaryo vohasi tarixi, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahvoli, sanoat va shaharsozligi borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Bular orasida N. Oblomurodov, J. Ergasheva, Yu. Ergasheva, N. O'roqova, M. To'rayeva, M. Sohibova, X. Yunusova, E. Tillayev, O'. Xudoyqulov, F. Yormatov, F. Ochilov,

⁵A. Uroqov. Ta'lim sifati bosh masala //Qashqadaryo haqiqati. 1986-yil 21-iyun; N. Uzoqov. Aholi daromadlarining shakllanishi va undan foydalanish yo'llari. // Qashqadaryo haqiqati. 1992-yil 13-oktabr; Sh. Begmatov. Xalq ishonchini amaliy ish bilan oqlaylik. // Qashqadaryo haqiqati. 1998-yil 15-iyul; A. Hasanov. Sog'liqni saqlash har kimning o'ziga bog'liq. // Qashqadaryo haqiqati. 2005-yil 17-iyun; K. Karimov. Ko'kbuloqliklar o'z muammolarini o'zlari hal qilishga o'rganishgan. Ammo... // Qashqadaryo haqiqati. 2005-yil 9-sentabr; D. Kenjayeva. Istiqbolga yo'naltirilgan sarmoya. // Qashqadaryo haqiqati. 2008-yil 8-yanvar; N. Zayniyev. Ishonch va imkoniyat maydoni yanada kengayadi. // Qashqadaryo haqiqati. 2008-yil 22-fevral; Q. Ergashev. Sport bu sog'lom avlod, sog'lom kelajak degani. // Qashqadaryo haqiqati. 2016-yil 23-fevral; Sh. Bozorova. Og'ir damlar ortda qolmoqda. // Qashqadaryo haqiqati. 2020-yil 1-may; A. Azimov. Xalq ehtiyojini tula qondiraylik.// Kommunizm alangasi. 1986-yil. 28-iyun; Sh. Amirqulov. Kelajak maktabdan boshlanadi. // Istibol. 1994-yil 1-yanvar; M. Uroqov. Sharafli ishimiz. // Kommunizm uchun. 1989-yil. 12-iyun; O. Qo'ldoshev. Bola sport bilan shug'ullansa, u ham jismonan, ham ma'nan barkamol bo'ladi. // Koson. 2010-yil 14-iyul; O. Parmonov. Sotsial adolat va oshkoralik hayotimiz mezonini bo'lsin. // Yangi hayot. 1990-yil 17-aprel; O. Qo'shoqov. Davr bizni sinovdan o'tkazmoqda. // Dehqonobod ovozi. 1992-yil 26-iyun; O'. O'tayev. Xalq dardi mening dardim. // Olg'a. 1990-yil 5-aprel; G'. Primov. Mehnatdan baxt topgan inson. // Chiroqchi. 2004-yil 24-dekabr; El sog'ligi – yurt boyligi. // "Shonli yo'P" 1986-yil 7-dekabr; S. Usmonov. Farovonlik sari. // Mirishkor mash'ali. 2006-yil 21-aprel; S. Isomiddinov. So'lim go'sha lavhalari. // G'alaba. 1986-yil 30-avgust; A. Toshev. Dolzarb mavzudagi anjuman. // Kitob tongi. 2001-yil 7-aprel; M. Mirakov. Tashabbuskorlik bilan ishlash qayt qurish talabi. // Leninichi? 1989-yil 10 sentabr; T. Saidov. Mustaqil yurt bunyodkorlari. // Sadoqat, 2005-yil. 27-may; Sharafli kasb egalari. // Do'stlik bayrog'i, 1990-yil 16-iyun; Farovonlik ramzi. // Muborak hayoti, 2007-yil 10-fevral; F. Xolmirzayev. Bog'ni qayta qurishning loyihasi tayyor bo'ldi. // Muborak hayoti, 2010-yil 11-iyun.

⁶Xolmo'minov H.E. O'zbekistonda Sovet mustamlakachiligi siyosatining migratsion jarayonlarga ta'siri (janubiy viloyatlar misolida 1946–1990 yy) avtoref. dis. t.f.n. – Toshkent, 2007; Xadjamuratova M. Farg'ona vodiysining demografik tarixi (1991–2006 yy.). Tarix fan. nomzodi... diss avtoreferati. – Toshkent, 2011; Parmanov F.Ya. Migratsiya jarayonlarini boshqarishda inson omili. // Sotsiologiya fanlari nomzodi dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2012; Tojiyeva Z. O'zbekiston respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari. Geografiya fanlari doktori (DCs) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2017. – 67 b.

J. Eshtemirov, K. Polvonov, B. Mamatqulov, O. Rahmonqulovalarning tadqiqotlarini aytib o'tish mumkin⁷.

K. Ergashev, A. Choriyev, Sh. Qurbonov, E. Tillayev, R. Siddiqov, D. Vasiyeva, Sh. Boymurodov, N. Sharapovalarning tadqiqotlarida ta'lim tizimi tadqiq qilingan bo'lsa, G. Mo'minova, Sh. Ubaydullayeva, N. Toshtemirova, O. Ochilova, O. Bo'ronovlarning tadqiqotlarida sog'liqni saqlash sohasi yoritilgan. Lekin ushbu tadqiqotlarda ham muammoning ayrim jihatlariga e'tibor qaratilgan⁸.

⁷ Обломуродов Н. Развитие аграрного производства Узбекистана в 1971-1990 гг. Опыт, уроки, проблемы. Автореф. дисс. док. ист. наук. – Ташкент, 1994; Ergasheva J. Qashqadaryo sanoatining barpo etilishi va rivojlanish tarixi (yangicha tahlil va xulosalar 1920–1970 yy.): Tarix fan. nomzodi... diss. – Toshkent, 1998. – 147 b.; Эргашева Ю. Культура Узбекистана: состояние, тенденции и проблемы развития (50–60 годы): Автореф. дисс... док. ист. наук. – Ташкент, 1998. – 56 с.; O'roqova N. Qashqadaryo sanoatining taraqqiyoti (XX asrning 70–80-yillari) tar.fan. nomz. avtoref. – Toshkent, 2004; To'rayeva M. O'zbekistonda madaniy hayot: muammo va oqibatlar (1920–1940 yy.) (Janubiy viloyatlar misolida): Tarix fan. nom. diss. – Toshkent, 2002. – 24 b.; To'rayeva M. O'zbekistonning janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi (1920–1945 yy.). Tarix fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Qarshi, 2024; Sohibova M. O'zbekistonda madaniy hayot: tajriba va muammolar (1946-1985 yillar janubiy viloyatlar misolida) Avtorefer. diss. t.f.n. – Toshkent, 2008; Yunusova X. Социально-экономические процессы и духовная жизнь в Узбекистане в 80-х годах XX века: Автореф. дисс. док. ист. наук. – Ташкент, 2009; Tillayev E.R. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlar (Janubiy viloyatlar misolida). Tarix fan. nomz. diss...avtoref. – Toshkent, 2010; Xudoyqulov O'. O'zbekistonning janubiy viloyatlarida yengil va oziq-ovqat sanoati yechim va muammolar (1970–1990 yy.). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2010; Yormatov F. O'zbekistonda aholining ijtimoiy himoyalash tizimi: holati, shakllanish jarayoni, rivojlanish istiqbollari (1991–2010-yillar janubiy viloyatlar misolida) Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2010. – 53 b.; Ochilov F. XX asrning 50–60-yillarida O'zbekistonning ijtimoiy ahvoli va muammolari (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari misolida). Tar. fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2011; Eshtemirov J. XX-XXI asr boshlarida Qarshi shahar madaniyati. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018; Tursunov A. O'zbekistonning janubiy viloyatlarida urbanizatsiya jarayonlari (tarixiy tahlil, 1991–2010 yy.). – Termiz, 2021. – 47 b.; Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... avtoref. Polvonov K. O'zbekistonda shaharlarning tashkil topishi va rivojlanishi tarixi (Qashqadaryo viloyati misolida, XX asrning 70-yillari – XXI asr boshlari). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... avtoref. – Qarshi, 2022; Mamatqulov B.Sh. O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosatining amalga oshirilishi va uning oqibatlari (1925–1941 yy.): Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... avtoref. – Qarshi, 2022. – 63 b.; Raxmonqulova O. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy soha islohotlarida xotin-qizlarning o'rni (Janubiy viloyatlar misolida, 1991–2020 yy.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... avtoref. – Qarshi, 2022. – 54 b.

⁸ Эргашев К. Развития общеобразовательной школы в Узбекистане. 70-е – 90-е гг: Проблемы и тенденции. – Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 1996; Чариев А. Народное образование и подготовка педагогических кадров в Узбекистане в условиях советского тоталитаризма (противоречия между системами традиционно национальной и советской.: Автореф. дисс... докт...ист.наук... – Ташкент, 1998; Курбанов Ш.Э. Социально-педагогические особенности национальной модели и программ по подготовке кадров: Автореф. дисс...канд. ист. наук. – Ташкент, 2000; Сиддиков Р.Б. Среднее специальное профессиональное образование Узбекистана в период советского тоталитаризма в годы независимости (1945-2001 гг.). – Автореф. дисс...канд. ист. наук. – Ташкент, 2002; Vasiyeva D.I. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda Universitet ta'limining shakllanishi va rivojlanishi: tajriba va muammolar (1991–2001 yy.): Tarix fan. nomz. diss... avtoref. – Toshkent, 2008; Boymurodov Sh. O'zbekistonda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi o'zgarishlar (1991–2016 yy). tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) disser. avtoref. – Toshkent, 2020. –54 b.; Sharapova N. O'zbekiston janubiy viloyatlarida umumta'lim maktablari tizimidagi islohotlar va uning natijalari (1991–2017 yy). tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) disser. avtoref. – Termiz, 2021. – 58 b.; Мўминова Г.Э. Медицина и здравоохранение Узбекистана: проблемы и последствия (1946-1990 гг.) (На примере южных областей Узбекистана). Автореф. дисс.канд.ист. наук. – Ташкент, 2000. – С. 24; Mo'minova G.E. O'zbekistonda sovet davrida sog'liqni saqlash tizimi tarixi (1917–1991 yy.): Tarix fanlari doktori (DSc) disser. avtoref. – Toshkent, 2018. – 66 b.; Ubaydullayeva Sh. O'zbekiston tibbiyotini rivojlantirishda xotin-qizlarning o'rni (1991–2021 yy.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. – Qarshi, 2022; Toshtemirova N.D. O'zbekistonda onalik va bolalikni muhofaza qilish ishi tarixi (1991–2019 yy.): Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Qarshi, 2022; Ochilova O. O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirishda xalq tabobatining o'rni (1945–2021 yy.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Qarshi, 2022; Bo'ronov O. 2022; O'zbekistonda qishloq aholisi sog'lig'ini saqlash tizimining yo'lga qo'yilishi va rivojlantirilishi (1991–2021 yy.)

Shuningdek, O'zbekistonning XX asr tarixiga oid yirik jamoaviy monografiyalar va professor Q. Rajabovning fundamental tadqiqotlarida⁹, B. Koshanov, R. Urazbayevalarning¹⁰ ilmiy izlanishlarida tadqiqot mavzusiga oid ayrim ma'lumotlar mavjud.

Bevosita aholining kundalik hayoti masalalari bo'yicha ham bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. B. Nosirov, G. Seydametova, E. Tajimirzayev, G. Allamuratov, N. Sharipova, V. Ashirovlar ushbu muammo bo'yicha izlanishlar olib borishgan¹¹.

Etnograf olimlar tomonidan muammoga tegishli bir qator ilmiy tadqiqotlar ham olib borilgan¹².

Tadqiqotning tarixshunoslik tahlilida ikkinchi guruhga tegishli mavzuga oid monografiyalar¹³, voha va tumanlar tarixiga oid mahalliy mualliflar tomonidan

⁹Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йй.). Иккита китоб. Иккинчи китоб. 1939–1991 йиллар. Масъул мухаррирлар: Р. Абдуллаев, М. Рахимов, Қ. Ражабов. – Тошкент: O'zbekiston, 2019; Қ. Ражабов Ўзбекистон XX асрда. Икки жилдлик. Иккинчи жилд (1939–2000 йй.). – Тошкент: Фан, 2024.

¹⁰ Кошанов Б., Отегенов Х. Очерки истории Каракалпакстана (1916–1991 гг.). – Нукус: Каракалпакстан, 2021; Уразбаева Р. Из истории высшего и среднего специального образования Каракалпакстана. – Нукус, 1994;

¹¹ Nosirov B. O'zbekiston aholisining kundalik hayotida maishiy xizmat tizimining o'rni (1925–1991-yillar). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2018. – 152 b.; Seydametova G. Повседневная жизнь городского населения Каракалпакстана в 60–80-х годах XX века. дисс. доктор.фил.по ист. наук (PhD). – Нукус, 2019. – 175 с.; Tajimirzayev E.A. XX asrning 60–80-yillarida Farg'ona vodiysi qishloqlari aholisining kundalik hayoti. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Andijon, 2020. – 156 b.; Allamuratov G. Qoraqalpog'istonning kundalik hayot tarzi tarixi (1941–1945-yillar). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Nukus, 2022. – 132 b.; Sharipova N. XX asrning 60–80-yillarida O'zbekiston o'qituvchilarining kundalik hayoti (Andijon, Namangan, Farg'ona oblastlari misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Andijon, 2023. – 141 b.; Ashirov V. Navoiy sanoat zonasi shaharlari aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush darajasi (1971–2021 yy.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Urganch, 2025. – 146 b.

¹² Ражабов Р. История и этнография арабов Узбекистана (середина XIX – начало XXI в.). автореф. диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Ташкент, 2012. – 48 с.; Usmonov M. Janubiy O'zbekiston qo'ng'irotlari (XIX asrning oxiri – XX asrning birinchi yarmi, tarixiy-etnologik tahlil). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... avtoref. – Toshkent, 2018. – 52 b.; Iskandarov Sh. O'zbekiston arablari etnomadaniy identikligining shakllanishi va transformatsiyasi. – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... avtoref. – Toshkent, 2019. – 54 b.; Xayitova F. O'zbek xalqi etnomadaniyatida ziyorat va ziyoratgohlar tarixi (Qashqadaryo viloyati misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... avtoref. – Qarshi, 2021. – 52 b.; Raxmonov F. Janubiy O'zbekiston o'zbeklari an'anaviy dehqonchiligining etnohududiy xususiyatlari (XIX asrning oxiri – XX asr). Tarix fanlari doktori (DSc) diss... avtoref. – Qarshi, 2022. – 74 b.; Djurayeva S. O'zbekistonning janubiy hududidagi ziyotargohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o'rni. Tarix fanlari doktori (DSc) diss... avtoref. – Toshkent, 2022. – 77 b;

¹³ Qashqadaryo viloyati geografiyasi. Geografiya o'qituvchilari uchun qo'llanma. – Qarshi, 1994. – 121 b.; Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: Sharq, 1999. – 157 b.; Ahmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002. – 224 b.; Ubaydullayeva R., Ota-Mirzayev O., Umarova N. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi. – Toshkent, 2006. – 96 b.; Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi (1989–2009 yy.). Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 58 b.; Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 271 b.; Rajabov M. O'zbekistondagi arablar tarixi va etnografiyasi. – Toshkent: Sharq, 2012. – 415 b.; Soliyev A. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. – Toshkent, 2014. – 387 b.; Egamov N. Janub javohiri. – Toshkent: Akademiya, 2016. – 158 b.; Iskandarov Sh. O'zbekiston arablari: an'analar va information jarayonlar. – Toshkent: Yangi nashr, 2017. – 204 b.; Qurbonov P. Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2019 – 174 b.; O'zbekiston tarixi (1917–1991-yillar). Ikki kitob. Ikkinchi kitob. 1939–1991-yillar. Mas'ul muharrirlar: Abdullayev R, Rahimov M, Rajabov Q. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 575 b.; Rahimov M, Abdumominov O. O'zbekistonning mustaqillikka erishish tarixi: 1980–1990-yillarda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar. – Toshkent: Turon-iqbol, 2019. – 359 b.; Usmonov M. O'zbekiston qo'ng'irotlari etnik tarixi, xo'jalik xususiyatlari va identik transformatsiyasi. – Toshkent: Voris, 2020. – 186 b.; Ergasheva Yu., Sharopova N. O'zbekiston janubiy viloyatlarida umumta'lim maktablardagi islohotlar. – Qarshi: Intellect, 2021. – 149 b.; Bo'riyev O., Jalilov I. O'zbek urug'lari. – Toshkent: Voris, 2021. – 237 b.; Polvonov K. Qashqadaryo vohasi shaharlar tarixi. (1970–2021-yillar). – Toshkent: Tamaddun, 2022. – 208 b.; Jalilov I. Qashqadaryo vohasi milliy o'yinlarining transformatsiya jarayonlari. – Qarshi: Nasaf NMIU, 2023. – 135 b.; Raxmatova D. XX asr 50–80-yillarida Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilgan paxta yakkahokimligi siyosati va uning oqibatlar. – Toshkent: Lesson press, 2024. – 203 b.

yozilgan bir qator asarlar bo‘lib, ularda ham muammoning ayrim jihatlari yoritilgan¹⁴.

Muammo tarixshunosligining uchinchi guruhiga xorijiy mualliflar tomonidan e‘lon qilingan ilmiy-tadqiqot ishlarini kiritish mumkin¹⁵.

Yuqoridagi ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur muammo tarixiy nuqtayi-nazardan maxsus tadqiqot mavzusi sifatida tadqiq etilmagan. Keltirilgan adabiyotlar, ilmiy tadqiqot ishlarida mualliflar ko‘tarilgan muammoni o‘z yo‘nalishlari doirasida izohlab o‘tishgan, xolos. Shu jihatdan, Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti va turmush tarzi masalasini mintaqaning lokal xususiyatlaridan kelib chiqib o‘rganish real voqelikni to‘laqonli tahlil etish va tegishli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Qashqadaryo vohasi aholisining migratsiya jarayonlari hamda kundalik va xo‘jalik hayotidagi o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda 1985–2021-yillarda viloyatdagi demografik ahvol, aholi migratsiyasidagi o‘zgarishlar hamda yuqori va quyi zonalardagi voha aholisining kundalik hamda xo‘jalik hayotidagi o‘zgarishlar haqida so‘z boradi.

¹⁴ Ashurova Sh. Qashqadaryo oblast Qamashi rayonidagi “Chimqo‘rg‘on” sovhozi tarixi. – Toshkent, 1986. – 95 b.; Jo‘raqulov O. Chandir turkmanlari. – Toshkent: Fan, 1992. – 234 b.; Sariqov N., Bobojonov M., Jo‘rayev Ch., Xaqnazarov D. Kasbiliklar. – Toshkent: Navro‘z, 1996. – 70 b.; Jumayev B. Chiroqchim – ona-urtime. – Qarshi: Nasaf, 1996. – 51 b.; Saidov M, Ravshanov P. Jeynov tarixi. – Toshkent, 1996. – 261 b.; Muhamedov N. Koson tarix sahifalari. – Qarshi: Nasaf, 1997. – 160 b.; G‘ofurov G‘. va boshq. Yakkabog‘ tarixi (o‘tmishi, buguni va kelajagi haqida lavhalar). – Toshkent: Sharq, 1997. – 192 b.; Jo‘rayev M. Maymanog‘im-sajdagohim. – Toshkent, 1997. – 47 b.; Abduraxmonov N. Beshchashma risolasi. – Samarqand, 1998. – 50 b.; Rajabov M. Boqiy umr. – Qarshi: Nasaf, 2000. – 55 b.; Ergashev E. Beshkent tarixi. – Qarshi: Nasaf, 2000. – 150 b.; Jo‘rayev M. Qadimiy manzilgoh. – Qarshi: Nasaf, 2000. – 100 b.; Ravshanov P. Qashqadaryo istiqloq arafasida. 1986-1989-yillar. – Toshkent, Ma‘naviyat, 2003. – 174 b.; Shodiyev T. Shahrisabzda tibbiyot taraqqiyotining nurli yo‘li. – Qarshi: Nasaf, 2004. – 93 b.; To‘xtamishov I. Boqiy umr. – Toshkent: Sharq, 2004. – 64 b.; Sharipov F., Jo‘rayev M. Elini suyganni el suyadi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 103 b.; Ashurova Sh, Axmedova Q. Qusam shayx. – Qarshi: Nasaf, 2005. – 383 b.; Avazov T. Shayxali. – Qarshi, 2006. – 64 b.; Raxmon G‘. Langar ota tarixi. – Toshkent: Kurash, 2006. – 167 b.; Erkayev.A. Qashqadaryo viloyati istiqloq yillarida. – Toshkent: Manaviyat, 2007. – 45 b.; Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – Toshkent: Muharrir, 2009. – 431 b.; Eshmurodov A., Mahmatqulov N. Beshchashma ziyolilari. – Qarshi, 2009. – 100 b.; Aliqulov H. Uyshun qishloq tarixidan lavhalar. – Toshkent: Voris, 2009. – 80 b.; Bekmurodov A. va boshq. Bu muqaddas vatanda azizdir inson. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2010. – 147 b.; Soatov A. Langar ota tabarruk manzilgoh yoxud idrok shamchirog‘i. – Toshkent, 2010. – 135 b.; Jo‘rayev T. Boyg‘undi qishlog‘i tarixi. – Qarshi: Nasaf, 2011. – 95 b.; Nuriddinov H. G‘uzornoma. – Toshkent: Yangi nashr, 2011. – 187 b.; Ashurova Sh. Tutak haqida mangu qo‘shiq. – Qarshi: Nasaf, 2011. – 103 b.; Arabov Z, Nafasov H., Xo‘janov Sh. Mo‘g‘lonliklar. – Qarshi: Nasaf, 2012. – 36 b.; Akbarov R. Patron qishlog‘i tarixi. – Qarshi: Nasaf, 2013. – 168 b.; Boymirov T. Chim fidoiy insonlar yurti. – Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2015. – 156 b.; Qilichev A. Xo‘jahayron ona qishlog‘im. – Toshkent: Voris, 2014. – 200 b.; Boymirov T., Boyqobilov O‘. Qamashi va qamashiliklar. – Toshkent, 2016. – 285 b.; Toshqulov K. Dehqonobod tarixi va taraqqiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 120 b.; Toshqulov K. Dehqonobod obod yurtim. – Toshkent: Muharrir. 2018. – 120 b.; Azimov I., Rajabov B. Xo‘jaxayronliklar. – Qarshi: Nasaf, 2018. – 176 b.; H. Haydarov. Haramjuy mahallasi tarixidan lavhalar. – Qarshi: Nasaf, 2018. – 108 b.; Rayxonov E. Moziy puchmog‘idan keladi karvon. – Qarshi: Nasaf, 2018. – 132 b.; Sharipov Ya. Ko‘chkak o‘tmishidan lavhalar. – Qarshi: Nasaf, 2019. – 96 b.; Toshqulov K. Tog‘lar saltanatidagi Tangiharam. – Toshkent: Tafakkur, 2020. – 200 b.; Ravshanov P. Buyuklik ko‘prigi Islom Karimov Qashqadaryo (1986–1989-yillar). – Toshkent: Universitet, 2021. – 163 b.; Xo‘jamov X. Yertepa qishlog‘i tarix zarvarqlarida. – Qarshi: Nasaf, 2020. – 256 b.; Omonov S. So‘nmas umrlar yoxud ajdodlar shajarasi. – Toshkent: Fan ziyosi, 2022. – 396 b.; Jo‘rayev A. G‘uzor tarixi. – Toshkent: Adast-poligraf, 2022. – 439 b.; Bo‘riyev I. G‘uzor tarixi sarhadlarida. – Qarshi: Intellekt, 2024. – 270 b.

¹⁵ Ludike A. The history of everyday life: Reconstructing historical ways of life. – USA: Princeton University Press. 1995. – 336 p.; Kotkin S. Magnetic Mountain: Stalinism as a Civilization. – USA, University of California Press, 1995. – 728 p.; Николас М. Повседневная жизнь провинциального общества начала XX века (г. Псков). автореф. дисс. на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Москва, 2009. – 26 с.; Гончарова О. повседневная жизнь провинциального Российского города на рубеже XIX-XX вв. (на материалах Нижнего Поволжья). автореф. дисс.и на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Астрахань, 2007. – 20 с.

O‘zbekistonning janubida joylashgan muhim viloyatlardan biri bo‘lgan Qashqadaryo vohasi respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayotida alohida ahamiyat kasb etadi. Viloyat aholisi 2021-yil noyabr holatiga ko‘ra, 3 mln 293,6 ming kishini tashkil qilib, aholi zichligi 1 km² ga 112,3 kishiga to‘g‘ri keladi¹⁶.

1989-yilda respublika bo‘ylab o‘tkazilgan aholi ro‘yxatiga ko‘ra, aholining umumiy soni 19,78 million kishini tashkil etgan. Shundan, Qashqadaryo vohasida 1,594 million kishi istiqomat qilgan bo‘lib, shahar aholisi 415 ming kishini (umumiy aholining 25%), qishloq aholisi esa 1,179 million kishini (umumiy aholining 75%) tashkil qilgan¹⁷.

Qashqadaryo vohasida aholi o‘tgan 30 yil davomida 1 mln 537 ming 400 kishiga ko‘paygan. Ya’ni mustaqillik yillarida viloyat aholisi soni 2 baravar oshgan. Bunga asosiy sabablardan biri kishilarning moddiy va maishiy turmushining yaxshilanishi, sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida aholi sonining tabiiy o‘sish sur’ati ancha tezlashdi.

Viloyat aholisi har o‘n yilda o‘rtacha 500 ming kishiga ko‘paygan, lekin oxirgi o‘n yilda o‘rtacha 400 ming kishiga ortgan. Buning sababi, keyingi yillarda farzand ko‘rish ketma-ketligining qisqarib ketishi bilan bog‘liq. Bu hatto qishloq joylarda ham kuzatilmoqda¹⁸.

Aholi demografiyasidagi muhim holatlardan yana biri shaharda yashaydigan aholi sonining ko‘payish jarayonini ham kuzatish mumkin. Mustaqillik yillarida viloyat shaharlari demografiyasida ham muayyan o‘zgarishlar bo‘ldi. Istiqlolning dastlabki yillaridayoq Qashqadaryo viloyati shaharlari aholisida shu narsa kuzatildiki, shaharlarda rusiyzabon aholi soni salmoqli bo‘lib, Ittifoq parchalangach, ularning ko‘pchiligi tarixiy vatanlariga ko‘chib ketdi, natijada shaharlar aholisida kamayish kuzatildi.

Xulosa qilib aytganda, aholi demografiyasi voha iqtisodiy va ijtimoiy sohalariga bevosita ta’sir etuvchi jarayon hisoblanadi. Bugungi kunga kelib, kishilarning shaharlarga intilishi kuchayib bormoqda. Natijada, shahar aholisining salmog‘i ko‘paymoqda, shuningdek, aholining milliy tarkibida o‘zbeklarning salmog‘i ham oshib ketmoqda, bunga, asosiy sabablardan biri sifatida tub joy aholisi bo‘lmagan millat vakillarining o‘z vatanlariga qaytishi va qishloq joylarida tug‘ilishning ko‘payishini misol keltirish mumkin.

Aholining yashash joyini o‘zgartirishi bilan bog‘liq ko‘chishi aholi migratsiyasi deyiladi. Aholi migratsiyasi aholining muhim muammolaridan biri bo‘lib, unga kishilarning oddiy mexanik ko‘chish harakati deb emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ko‘p tomonlarini qamragan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi. Aholi migratsiyasi aholining joylashishi, yerni xo‘jalik jihatdan o‘zlashtirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, irqlar, tillar va xalqlarning paydo bo‘lishi va aralashib ketish jarayonlari bilan bog‘liq.

SSSR parchalanishi arafasida O‘zbekistonda yashayotgan turli millat vakillarining o‘z tarixiy vatanlariga qaytish jarayoni faollashgan edi. Mustaqillikning dastlabki yillarida ham bu tendensiya davom etib, aholining migratsiya harakatlari

¹⁶ Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi. – Qarshi: 2022. – 2 b.

¹⁷ Население СССР 1988. Статистический ежегодник. – Москва: Финансы статистика, 1989. – С. 24.

¹⁸ Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasining joriy arxivi. 2021.

yuqori darajada saqlanib qoldi. Ayniqsa, 1991–1994-yillar davomida migratsiya jarayonlarining jadalligi butun respublika bo‘ylab kuzatildi.

Bu davrda O‘zbekistonga ham, O‘zbekistondan ham migratsiya oqimi kuchli bo‘lib, har yili o‘rtacha 600 ming kishi yashash joyini o‘zgartirgan. Asosan, rusiyzabon millatlar o‘z tarixiy vatanlariga ko‘chib ketgan bo‘lsa, chet elda yashovchi o‘zbeklar o‘z yurtiga qaytgan. Qashqadaryo viloyatida ham shunga o‘xshash jarayonlar kuzatilgan: turkmanlar va tojiklar o‘z milliy davlatlariga ko‘chib ketgan bo‘lsa, boshqa hududlardagi o‘zbeklar viloyatga qaytgan.

Migratsiya aylanmasi, ya’ni ko‘chib keluvchilar va ko‘chib ketuvchilar yig‘indisi 1993-yilgacha Qashqadaryoda har yili 60–80 ming kishi atrofida bo‘lgan bo‘lsa, undan keyingi yillarda bu ko‘rsatkich 50 ming kishidan oshmadi¹⁹.

Viloyatda ko‘chib yurishlar eng yuqori bo‘lgan davrlarda (1991–1993), bu jarayonda har yili 20–30 ming qatnashgan edi, keyingi yillarda ko‘chib yuruvchilar soni 20 ming kishi atrofida bo‘ldi. Qashqadaryo viloyatida 1991-yilda 1 mln 759,6 ming kishi yashagan bo‘lsa, 1994-yilga kelib 1 mln 917,9 ming kishi aholi hisobiga ko‘payganini misol qilishimiz mumkin²⁰.

Tadqiq etilayotgan davrda barcha hududlarda bo‘lgani kabi Qashqadaryo viloyatida ham qishloqdan shaharga tomon harakat doimiy ravishda amalga oshgan. Natijada barcha yillarda qishloq aholisining migratsiya qoldig‘i manfiy tusga ega bo‘lgan. Bu holat qishloq aholisining ijtimoiy tarkibi, madaniy darajasi, bilim saviyasiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan.

Shu o‘rinda Qarshi shahrida migratsiya jarayonlarining faol kechganligi (ya’ni rusiyzabon aholining ko‘chib ketishi hamda bo‘shab qolgan uy-joylarga shahar atrofi qishloqlarida yashovchi aholining ko‘chib kelishi) uning mazkur toifa shaharlari qatorida qayd etilishiga sabab bo‘ldi. Muborak, Talimarjon singari sanoat shaharlaridagi migratsiya jarayonlarining manfiy ko‘rsatkichga ega ekanligi ularning mintaqada aholi o‘sish darajasi bo‘yicha eng oxirgi o‘rinlarni band qilishiga olib keldi²¹.

Lekin 1992–1993-yillarda qo‘shni Tojikistondagi fuqarolar urushi natijasida viloyatning G‘uzor, Nishon va Qamashi tumanlariga 12000 ga yaqin aholining ko‘chib kelishi kuzatildi. Ular asosan G‘uzor tumanining SHERALI, Batosh qishloqlariga, Nishon tumanining Shirinobod, 23-sovxoq qishloqlariga, Qamashi tumanining Qamay qishloqlariga kelib joylashgan²².

Ushbu fuqarolar 2000-yilgacha eski fuqarolik pasporti bilan istiqomat qilishgan. 2010-yildan boshlab ularga fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga beriladigan pasport berila boshlandi. 2016-yildan boshlab ularga O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik pasporti berila boshlandi.

Qashqadaryo vohasida mehnat migratsiyasi ham migratsion harakatlarda asosiy mezon vazifasini o‘tagan. Ushbu migratsiyada ishtirokchilarning asosiy qismini tub joy aholi tashkil etganligi bois, migratsiyaning asosiy harakatlari

¹⁹ Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi arxivi. 1998.

²⁰ Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi arxivi. 1998.

²¹ Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi arxivi. 2010.

²² Dala yozuvlari. Nishon tumani, 23 sovxoz. Egamberdiyev Muzaffar. 2020.

vaqtincha migratsiya tusini olgan. Undan tashqari, migratsiya jarayonlarini tadqiq etishda migrantlarning oilaviy tarkibi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat migrantlari orasida oila qurmagan yoshlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Qashqadaryo viloyatida mehnat migratsiyasi asosan 1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab kuzatila boshlandi. Ular asosan Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Qarshi tumanlari va Qarshi shahridan ko'pchilikni tashkil etishgan. Migrantlar ko'proq Rossiya Federatsiyasiga ishlash uchun borishgan. Viloyatning qolgan tumanlardagi mehnat migrantlari, asosan, Toshkent shahriga vaqtincha ishlash uchun borishgan²³.

Shu bilan birga o'rganilgan natijalarga ko'ra, migrantlar orasida to'y o'tkazish, uy-joy yoki avtomobil sotib olishga pul topish uchun sarmoya to'plash maqsadida xorijga boruvchilar soni ham ortib borgan.

Lekin oxirgi yillar tendensiyasiga e'tibor qilinadigan bo'lsa, Rossiyaga yo'l olgan yoki muntazam borib kelayotgan ishchilarning malakasi oshib bormoqda va ular endi tobora ko'proq haq to'lanuvchi va nufuzliroq ish o'rinlarini ham egallashmoqda. Hozir taksi haydovchilari, do'konlardagi sotuvchilar, turli-tuman jihozlar ustalari, mehmonxona xizmatchilari, oshxona va restoranlarda ishlovchi o'zbeklar talaygina²⁴.

Qashqadaryo vohasi tabiiy va iqlim sharoiti, geografik joylashuvi jihatidan ikki qismga ajratiladi. Vohaning quyi qismi aksariyat keng cho'ldan (Qarshi cho'li) iborat bo'lib (Qarshi, Koson, Muborak, Mirishkor, Nishon tumanlari), yuqori qismi (Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Qamashi, Dehqonobod tumanlari) hududlari tog'lar bilan o'ralgan²⁵.

Quyi Qashqadaryoda yaylov uchun keng maydonlarning mavjud bo'lishi bu yerda chorvachilikni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratib borgan.

Yuqori zonadagi vohaning tekislik qismida suv manbalarining yetarli bo'lganligi uchun sug'orma dehqonchilik, tog' va tog' oldi hududlarda suv tanqisligi tufayli lalmi dehqonchilik asosiy mashg'ulotlardan biri hisoblanadi²⁶.

Yuqori Qashqadaryo aholisining kundalik hamda xo'jalik hayotidagi o'ziga xosligi shundaki, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Qamashi, Dehqonobod tumanlarining tog'li hududlarda dehqonchilik birmuncha kechroq may oylarida boshlanadi. Bahorning nisbatan kechroq boshlanishi, qishning uzoq davom etishi, yozning qisqa muddat bo'lib, o'rnini darhol o'zidan ham kam vaqt davom etuvchi kuzga bo'shatib berishi tog'li hududlarda yashovchi aholining dehqonchiligi boshqacha kechishiga sabab bo'ladi.

Quyi Qashqadaryo vohasida joylashgan Koson tumani mahallalarida hunarmandchilik an'analari davom ettirilayotgan bo'lsa, ba'zilarida chorvachilik rivojlantirilgan, boshqalari esa bog'dorchilik, mirishkorlikda tilga tushgan²⁷.

Qashqadaryo vohasi quyi oqimidagi Po'lati, Arabxona, Qarshi Arabxona, Ko'chkak, Kahlak, Qamashi qishlog'ida va Mirishkor tumanining Jeynov,

²³ Dala yozuvlari. Kitob tumani, Jilisuv qishlog'i. Doniyorov Jumanazar. 2022.

²⁴ Dala yozuvlari. Kitob tumani, Jilisuv qishlog'i. Doniyorov Jumanazar. 2020.

²⁵ Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ma'lumotlar bazasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 17 b.

²⁶ Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ma'lumotlar bazasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 17 b.

²⁷ Qashqadaryo haqiqati. 2016-yil 5-iyul.

Nishon tumanining Istiqbol (Arabovul) qishloqlaridagi aholi chorvachilikdan o'troq dehqonchilikka o'tib ketishgan²⁸.

Yuqori va Quyi Qashqadaryo aholisining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu etnik jihatdan xilma-xil millat vakillarining yashashidir. Etnik xususiyatga ko'ra, tojik millatiga mansub aholi Dehqonobod tumanining Qo'shkul, Qizilmozor, Bog'chorbog', Tersog'ar, Gumbuloq, Yasha, Shakarbuloq, Karaxaval, Darxon, Kitob tumanining Shut, Shahrisabz tumaning Ko'l, G'ilon, Sarshachma (asosan ushbu tumanlarda tog'li hudud aholisi), Kasbi tumanining Fazli qishloqlarida va Koson tumanining markazida istiqomat qilishadi²⁹.

Bundan tashqari Mirishkor tumanining Chandir va Pomuq hududlarida, Muborak tumanining Turkman qishlog'ida turkman millatiga mansub aholi istiqomat qiladi³⁰.

Arablar asosan Koson tumanining Po'lati, Rahimso'fi, Xo'jaquduq, Andabozor, Boyterak, Darcha, Qanotli, Bo'rixona, Pistali, Nomard, Olachabop, Og'zikeng³¹, Qamashi tumanining Arab, Qorabog' (ushbu qishloq aholisining bir qismi), Chirqchi (Chorvador), G'uzor tumanining Arab, Arabxona, Arab dashti, Yakkabog' tumanining Arab Kattaarab, Pastarab, Qarshi shahri atroflaridagi Qorabayir, Parg'uza, Ko'chkak, Shayxali, Mirishkor tumanining Jeynov, Kasbi tumanining Cho'lquvar qishloqlarida istiqomat qilishadi³².

Dissertatsiyaning "**Aholi ijtimoiy turmushidagi o'zgarishlar**" deb nomlangan uchinchi bobida Qashqadaryo vohasi aholisining mehnat va maishiy sharoitlari, aholining daromadlari va xarajatlari hamda xalq iste'moli mollari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganligi yoritilgan.

Jamiyat rivojlanishning bir sifat bosqichidan boshqasiga o'tayotganda aholi bandligini ta'minlash juda katta muammolardan biriga aylanadi. Respublika hukumati ham mazkur holatning oldini olish, ishdan bo'shatilganlarni qo'llab-quvvatlash, ishsizlikka barham berish, mehnat yarmarkalarini o'tkazish, bandlik dasturini ishlab chiqish kabilarga e'tibor qaratdi.

1982–1986-yillarda viloyatda mehnat resurslari soni 69,4 ming kishiga o'sgan holda, ijtimoiy ishlab chiqarishda ulardan 55,8 % yoki 49,9 ming kishi jalb etilgan. Mehnat resurslarining qolgan qismi, ya'ni 44,2 %i uyda o'tirib qolgan va o'zining shaxsiy xo'jaligida shug'ullangan. 1986-yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda 17356 nafar erkak va 79125 nafar xotin-qiz ishsiz bo'lgan³³.

Umuman, mustaqillikning dastlabki yillarida Qashqadaryo viloyatida ishsizlar soni ortib bordi. 1992-yilning 1-iyulidagi ma'lumotlarga ko'ra ularning soni 65285 nafar kishini tashkil etdi. Bularning 36085 nafari 16–35 yoshgacha bo'lgan yoshlardan iborat edi. 29200 nafar kishi esa 31 yoshdan pensiya yoshigacha bo'lgan fuqarolar edi. Ish bilan band bo'lmaganlarning 54474 nafari, aksariyat

²⁸ Iskandarov Sh. O'zbekiston arablari: an'analar va transformatsion jarayonlar. – Toshkent: Yangi nashr, 2017. – 73 b.

²⁹ Dala yozuvlari. Kitob tumani, Hazrati Bashir qishlog'i. Norov Nomoz. – 2022.

³⁰ Dala yozuvlari. Muborak tumani, Qarliq qishlog'i. Xo'jamurodov Isomiddin. 2021.

³¹ Iskandarov Sh. O'zbekiston arablari: an'analar va transformatsion jarayonlar. – Toshkent: Yangi nashr, 2017. – 46 b.

³² Rajabov R. O'zbekistondagi arablar tarixi va etnografiyasi. – Toshkent: Sharq, 2012. – 266 b.

³³ Qashqadaryo haqiqati, 1986-yil 31-may.

ko'pchiligini xotin-qizlar tashkil etgan. Bu hol xotin-qizlar uchun alohida ish o'rinlarini tashkil etishni talab qilgan³⁴.

O'rganilgan davrda Qashqadaryo viloyatida ham aholini ish bilan ta'minlash borasida qator ibratli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, Qarshi shahrida "Bo'sh ish o'rinlari yarmarkasi"ning o'tkazilishi muntazam tus oldi. Xususan, 2008-yilning boshida o'tkazilgan shunday yarmarkada 78 ta korxonalar, tashkilot va muassasalar vakillari ishtirok etdilar. Talabgorlarga 330 ta bo'sh ish o'rinlari taklif qilindi. Yarmarka davomida shahar bandlikka ko'maklashuvchi markaz xodimlari 142 nafar fuqaroning ishga joylashish haqidagi mehnat shartnomasini ro'yxatga oladilar³⁵.

Aholining ijtimoiy hayotida ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlanish achinarli ahvolda edi. 1986-yili viloyatda qariyb 700 ta qishloq normal ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan. 150 ta qishloqda tabiiy gaz yo'q edi. Ayniqsa, Dehqonobod, Qamashi, Yakkabog' va boshqa tumanlarda qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilash sohasidagi faoliyat talabga mutlaqo javob bermagan. Birgina U. Yusupov tuman Sulaymon Murodov sovxozida "Qarshstroy" boshqarmasining aybi bilan vodoprovod, asfalt yo'l, qishki klub qurilmasdan qolgan³⁶.

Viloyat aholisining yarmidan ko'prog'i vodoprovod suvi bilan ta'minlanmagan, 25 million kubometrda ziyod oqava suvlar tozalanmasdan ochiq suv havzalariga, yerlarga quyilgan. Mavjud 91 ta tozalash inshootidan 41 tasi, shu jumladan, "Qarshstroy" tuzilmasidagi 32 ta tozalash inshooti ishlamagan³⁷.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarida ulkan islohotlar amalga oshirildi. 1999-yilda 471,5 km gaz, 183,7 km suv tarmoqlari yotqizilib, viloyat bo'yicha gaz bilan ta'minlanish 58,0 % ni tashkil etdi, bu esa shahar aholisining 97,7%i, qishloq aholisining 48,0%i ni tashkil qildi. Ichimlik suvi bilan ta'minlanish 73,0% ni tashkil etib, shahar aholisining 85,1%i, qishloq aholisining 66,6%i ni qamrab olgan. Jumladan, Qarshi tumanida 1999-yilda 14,6 kilometr ichimlik suvi, 20,3 kilometr tabiiy gaz quvurlari yotqizilgan³⁸.

Lekin shunga qaramasdan, ushbu sohada talay kamchiliklar mavjud edi. Jumladan, 2020-yilda ichimlik suvi ta'minoti viloyat bo'yicha 50 foizni, Kosonda 26, Dehqonobodda 4 va G'uzorda 2,4 foizni tashkil qilib, respublikaning birorta tumanida ahvol bu qadar og'ir emasdi.

Aholi daromadlari iqtisodiy kategoriya sifatida bir tomondan, xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat o'rtasida, ikkinchi tomondan, uy xo'jaliklari va individlar o'rtasida yangidan yaratilgan qiymat qismini o'zlashtirish, taqsimlash va qayta taqsimlash borasida yuzaga keluvchi umumiy munosabatlarni ko'rsatadi³⁹.

³⁴Yormatov F. O'zbekistonda aholining ijtimoiy himoyalash tizimi: holati, shakllanish jarayoni, rivojlanish istiqbollari (1991–2010-yillar janubiy viloyatlar misolida). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2010. – 53 b.

³⁵ Yormatov F. O'zbekistonda aholining ijtimoiy himoyalash tizimi: holati, shakllanish jarayoni, rivojlanish istiqbollari (1991–2010-yillar janubiy viloyatlar misolida). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2010. – 62 b.

³⁶ Кашкадарьинская правда. 10 декабря 1987.

³⁷ Qashqadaryo haqiqati. 1988-yil 2-iyun.

³⁸ Ergashev E. Beshkent tarixi. – Qarshi: Nasaf, 2000. – 146 b.

³⁹ Abduramanov X., Arabov N., Xolmuxamedov M. Aholi daromadlari va turmush sifati. O'quv qo'llanma. 2023. – 15 b.

XX asrning 80-yillarida O'zbekistonda aholining kundalik daromadlari va yashash sharoitlarida o'zgarish holatlari sodir bo'ldi. Sovet davrida aholining daromadi asosan qishloq xo'jaligi va shaxsiy tomorqa xo'jaligidan olinardi. Aholi aksariyat qismining turmush tarzi yer bilan bog'langan edi.

Viloyatda o'rtacha oylik ish haqi 1989-yilning birinchi kvartalidagi 163,6 rubldan 1990-yil birinchi kvartalida 175,9 rublga ko'paygan, kolxozchilar mehnatiga haq to'lash esa 94 rubldan 83 rublga kamaygan⁴⁰.

Qashqadaryo viloyatida aholining turmush darajasi pastligicha qolavergan. 1990-yili o'rtacha ish haqi 220 rublni tashkil etgan bo'lsa, 1991-yilning aprel va may oylarida esa bu raqam 194 rublga tushib qolgan. Vaholanki, mamlakat miqyosida yashash minimumi 320 rublga to'g'ri kelgan. Narx-navo to'xtovsiz oshib borayotgan bir vaqtda oylik daromad turmush kechirish uchun yetmagan⁴¹.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Turmush darajasi deganda, aholining zaruriy moddiy, nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi⁴².

Hudud aholisi turmush darajasini real o'rganish uchun ijtimoiy kuzatuvda so'rov uslubi bo'yicha jinsi, yoshi, ma'lumotini ko'rsatish so'ralgan holda quyidagi savollardan foydalanildi: *“Qaysi sohada mehnat qilasiz va daromadingizdan mamnunmisiz?”*, *“Daromadingizni oshirish uchun qaysi sohaga o'tib ishlashni xohlaysiz?”*, *“Oylik maoshingizni jamg'arish imkoniyatiga egamisiz, boshqa daromad keltiruvchi ishlar bilan shug'ullanasizmi?”*, *“Shaxsiy yordamchi xo'jalik bilan shug'ullanasizmi (dehqonchilik, chorvachilik yoki bog'dorchilik)?”*, *“Daromadingizni qay tariqa (asosan nimaga) sarflaysiz?”*, *“Kelajakda o'z daromadingizni qaysi bir manba hisobidan oshirishni xohlaysiz?”*.

So'rovnoma qatnashganlarning 60 % erkaklar va 40 % ayollar. Kuzatuvda qatnashganlar orasida o'rta ma'lumotli respondentlar 100 nafar (50%)ni, ularning 50 nafari ayollar, 50 nafari erkaklar: oliy ma'lumotli respondentlar 100 nafarni (25 %); o'rta-maxsus ma'lumotlilar 160 nafarni va to'liqsiz o'rta ma'lumotlilar 40 nafarni tashkil etdi⁴³.

So'rovda qatnashgan 400 ta respondentdan, mehnat daromadingiz qay darajada bo'lishini xohlaysiz? – degan savolga 70 % dan ortiqrog'i, “daromadlar oziq-ovqat va kiyim-kechaklar sotib olishga yetarli bo'lishidan tashqari jamg'arishga ham yetarli bo'lishi kerak” – deb javob berdilar⁴⁴.

Ijtimoiy so'rovda qatnashgan respondentlarning 200 nafari muayyan mablag' jamg'arish imkoniyatiga ega emasligini ta'kidlashdi. Jamg'arish imkoniyatiga ega bo'lganlarning yarmi o'zlariga qulaylik yaratish uchun, ya'ni shaxsiy uy-joy

⁴⁰ Qashqadaryo haqiqati. 1990-yil 8-may.

⁴¹ Qashqadaryo haqiqati. 1991-yil 4-iyul

⁴² Muhitdinov X. Hudud aholisi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy rivojlanishini modellashtirish. – Toshkent: Fan, 2009. – 21 b.

⁴³ Qashqadaryo viloyati aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoitini aniqlash uchun so'rovnoma natijalari. 2022–2023-yillar.

⁴⁴ Qashqadaryo viloyati aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoitini aniqlash uchun so'rovnoma natijalari. 2022–2023-yillar.

sotib olishga, – deb, 1/5 qism respondent, shu jumladan, 19% erkak va ayol 21% ayol “Shaxsiy avtomobil sotib olishga”, – deb javob berdi⁴⁵.

Anketa so‘rovidan ma’lum bo‘lishicha, qishloq oilalarining 92 %i xususiy uyda yashaydi. Qulayliklarning hammom, telefon, kanalizatsiya, markaziy isitish kabi turlari umuman talab darajasida emas. Oddiy qulayliklar, ya’ni vodoprovod, gaz, alohida oshxona ham 40 % ni tashkil qiladi.

Umuman olganda, qishloq aholisi turmush sharoitini yaxshilashda ma’lum darajada yuksalish bo‘lganligiga qaramay, qishloqning ijtimoiy rivojlanishi, ayniqsa, uning madaniy-maishiy sohasi shahar bilan qishloq o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutni intensiv ravishda bartaraf qilish sohasidagi talabdan hamon orqada qolmoqda⁴⁶.

Qashqadaryo viloyatida sovet hokimiyatining so‘nggi yillari va istiqloqlarning ilk davrida aholining daromadlari va kundalik turmush sharoitlari yomonlashib borgan. Keyinchalik ko‘rilgan iqtisodiy chora-tadbirlar natijasida aholining real daromadlari oshib boradi. Viloyatda davlat byujetidan oylik maosh oluvchilardan ko‘ra o‘zining tadbirkorlik faoliyati bilan daromad oluvchilar soni yildan-yilga ortib bordi. So‘nggi yillarda oylik maoshlar, nafaqa va boshqa ijtimoiy to‘lovlar miqdorining oshib borishi aholi real daromadlari va yashash sharoitlarining yaxshilanishiga olib kelgan.

Aholi sonining ortishi nafaqat oziq-ovqat mahsulotlariga, balki nooziq-ovqat mollariga bo‘lgan talabning ham o‘shishiga sabab bo‘ladi. Jumladan, xalq iste’mol mollarini ishlab chiqarishdagi imkoniyatlardan Qashqadaryo viloyat agrosanoat qo‘mitasi tarmoqlarida ham yetarli darajada foydalanilmagan. Natijada agrosanoat kompleksida ana shunday tovarlar ishlab chiqarish rejalari amalga oshmagan. Qashqadaryo viloyatida mahalliy sanoat va maishiy xizmat boshqarmalarida ham xalq iste’mol mollari ishlab chiqarish sur‘atlari sekinlik bilan amalga oshgan. Mahalliy sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati talabga mutlaq javob bermagan⁴⁷.

1986-yilda aholi jon boshiga go‘sht iste’mol qilish respublika miqyosida 30 kg, oblastda 23,5 kg, sut respublikada 72 l, oblastda 152 l, tuxum respublikada 107 dona, oblastda 89 donani tashkil qilgan⁴⁸. Bu uzoq vaqt davomida oblastda ijtimoiy muammolarning yechilmay kelishi natijasida yuzaga kelgan. Sababi, oblastda 1985-yilda zarar ko‘rib ishlagan kolxoz va sovxozlar 61 ta bo‘lsa, 1986-yilga kelib bu ko‘rsatkich 17 taga ko‘paygan, boshqacha qilib aytganda, jami 140 ta xo‘jalikning 78 tasi qarzдорlik botqog‘iga botib qolgan⁴⁹.

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida aholini iste’mol mollari bilan ta’minlash borasida bir qator qiyinchiliklarga duch kelindi. Chunki sovetlar

⁴⁵ Qashqadaryo viloyati aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoitini aniqlash uchun so‘rovnoma natijalari. 2022–2023-yillar.

⁴⁶ Muhitdinov X. Hudud aholisi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy rivojlanishini modellashtirish. – Toshkent: Fan, 2009. – 34 b.

⁴⁷ Doniyev I. Qayta qo‘rish yillarida Qashqadaryo viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar.// O‘zbekistonning mustaqillikka erishish tarixi: 1980–1990-yillardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy imkoniyatlari. Ilmiy to‘plam. – Toshkent: Turon iqbol, 2019. – 127 b.

⁴⁸ Qashqadaryo VHA. 1-fond, 39-ro‘yxat, 2–ish, 128-varaq.

⁴⁹ Равшанов П. Буюклик кўприги. – Тошкент: Университет, 2021. – 173 б.

davrida respublikalar iqtisodiyoti Markazga tobe va ittifoqdosh respublikalar bilan o‘zaro bog‘liq holda bir tomonlama rivojlantirilganligi oqibatida SSSR parchalangandan so‘ng barcha mustaqil respublikalar iqtisodiyotda qator qiyinchiliklarga duch keldilar.

Shuning uchun ham mavjud iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda insonlarning hayot darajasi pasayishining oldini olish maqsadida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan hamda ular bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Bunday islohotlardan biri aholini iste‘mol mahsulotlari bilan ta‘minlash borasida olib borilgan siyosat katta ahamiyatga ega bo‘lgan⁵⁰.

Iste‘mol mollarini faqatgina respublika aholisiga sotish va ichki iste‘mol bozorini himoya qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 2-yanvardagi “1992-yilda O‘zbekiston Respublikasining iste‘mol bozorini himoya qilish to‘g‘risida”⁵¹gi qarori qabul qilindi.

Shu maqsadda viloyatda bozor sharoitlariga o‘tish davrida aholining ijtimoiy himoyasini ta‘minlash maqsadida ularga oziq-ovqat va turli xomashyo mahsulotlari sotishning imtiyozli yo‘llarini ishlab chiqishda ham qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, o‘tgan asrning 90-yillari boshlarida un, makaron mahsulotlari, guruch, o‘simlik moyi, choy, shakarqand, tuxum, go‘sht va go‘sht mahsulotlari, kir sovun, ip-gazlama matolarni sotishda cheklangan narxlar belgilandi va ijtimoiy muhtoj aholiga uni imtiyozli narxlarda sotish yo‘llari ishlab chiqilgan⁵².

Jumladan, 1992-yildan bozor munosabatlariga o‘tishning dastlabki yillarida iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda iste‘mol mollarini aholiga me‘yorlashtirilgan tarzda, ya‘ni bunda hayot kechirish uchun eng zarur bo‘lgan mahsulotlar davlat tomonidan belgilangan (un – 4 kg (7 kg), o‘simlik yog‘i – 0,51, sariyog‘ – 100 gr, makaron – 250 gr, guruch – 800 gr, xo‘jalik sovuni – 200 gr, aroq – 2 shishadan, ip gazlama – 2 m, 1 juft kalish) norma asosida har bir oila jon boshiga qarab yagona kartochka (oilaviy hisob varaqlari) joriy etilib, do‘konlarga birlashtirilgan⁵³.

1996-yilda yalpi sanoat va xalq iste‘mol mollari ishlab chiqarish hajmi o‘sgan bo‘lsa-da, aholi jon boshiga hisoblaganda bu ko‘rsatkichlar hali ancha past bo‘lgan. Masalan, xalq iste‘mol mollari ishlab chiqarish aholi jon boshiga respublika o‘rtacha ko‘rsatkichining bor-yo‘g‘i 44 % ini tashkil etgan. Ya‘ni jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari uchun yiliga 3,7 ming so‘m sarflangan bo‘lsa, shuning faqat 2,1 ming so‘migina mahalliy ishlab chiqarish hissasiga to‘g‘ri kelgan. Boshqacha qilib aytganda, agrar mintaqada yashab turib, oziq-ovqatning 43,3 % i chetdan keltirilgan⁵⁴.

⁵⁰Nurmatov A. Qayta qurish yillarida O‘zbekistonda aholi moddiy ta‘minoti: holati va muammolari// O‘zbekiston mustaqillikka erishishining tarixiy shart-sharoitlari. – Toshkent: Tamaddun, 2022. – 127 b.

⁵¹ <https://lex.uz/docs/364529>.

⁵²Ерматов Ф. Ўзбекистонда аҳолининг ижтимоий ҳимоялаш тизими: ҳолати, шаклланиш жараёни, ривожланиш истикболлари (1991–2010 йиллар жанубий вилоятлар мисолида). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.\\ – Тошкент, 2010. – 15 б.

⁵³ Қашқадарё ҳақиқати. 1992 йил 4 январь.

⁵⁴ Қашқадарё ҳақиқати. 1997 йил 22 январь.

Iqtisodiy yuksalish aholi moddiy farovonligining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Viloyatda aholi pul daromadlari 2002-yilga nisbatan, 2006-yilda 251,3 % ga ko'paygan, natijada qashqadaryoliklarning harid qobiliyatlari tez o'sgan. Vohada shaxsiy avtomobillar soni 95 mingta, 549 ming kvadrat metr uy-joy, 2200 ta dala hovli qurilgan⁵⁵.

Viloyat bo'yicha xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish yillar kesimida quyidagicha bo'lgan: 2011-yil holatiga ko'ra oziq-ovqat mahsulotlari – 466,3 mlrd. so'm, nooziq-ovqat mahsulotlari –338,6 mlrd. so'm, 2016-yil holatiga ko'ra oziq-ovqat mahsulotlari – 1458,2 mlrd. so'm, nooziq-ovqat mahsulotlari – 1089,2 mlrd. so'm, 2021 yil holatiga ko'ra oziq ovqat mahsulotlari – 2691,3 mlrd. so'm, nooziq-ovqat mahsulotlari – 1866,8 mlrd. so'mni tashkil etgan⁵⁶.

Sovet davrida, xususan XX asrning 80-yillarida Qashqadaryo viloyatida aholini ish bilan ta'minlash, aholining turmush darajasi pastligi bo'yicha yetarlicha muammolar mavjud edi. Mustaqillikning dastlabki yillarida davlat tomonidan iste'mol bozorini himoya qilish maqsadida eng zarur mahsulotlar norma asosida beriladigan bo'ldi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish, paxta ekinlari o'rnida g'allachilik va bog'dorchilik maydonlarining ko'payishi natijasida aholi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ko'proq ta'minlana bordi. Shuningdek, aholining xarid quvvati ortishi natijasida nooziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab ham ortib borgan.

“Aholi kundalik hayotida ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniy dam olish maskanlari faoliyati” deb nomlangan to'rtinchi bobida aholi kundalik hayotida ta'limi tizimi, sog'liqni saqlash va madaniy dam olish maskanlari faoliyati tahlil qilingan.

XX asrning 80-yillari o'rtalaridan boshlangan qayta qurish madaniyat sohasini ham qamrab oldi. Bu narsa, ayniqsa, ta'lim tizimida ham namoyon bo'ldi⁵⁷. Qashqadaryo viloyatida 1986-yil 1-yanvargacha bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra 1–6 yoshli bolalarning maktabgacha tarbiya muassasalari bilan ta'minlanishi 22,6 % ni tashkil etgan⁵⁸.

1990-yilda bolalarni bog'chaga tortish ishlari qoniqarsiz bo'lgan. Viloyat bo'yicha maktabgacha yoshdagi bolalarning 21 % i yoki har beshdan biri bog'chaga qatnagan. Chiroqchi, Ulyanov kabi tumanlarda esa bu ko'rsatkich 10–11% dan oshmagan⁵⁹.

Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatidagi maktabgacha ta'lim muassasalari yangicha uslubda faoliyat olib bordi. Viloyatda 2004-yilda 392 ta maktabgacha ta'lim muassasasi bo'lib bo'lib, ulardagi bolalar soni 43,2 mingta, tarbiyachilar soni 3339 tani tashkil etgan⁶⁰.

⁵⁵Эркаев А. Қашқадарё вилояти истиқлол йилларида: (Президент Ислам Каримовнинг “Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли” рисоласидан келиб чиққан ҳолда, вилоятнинг иқтисодий-ижтимоий ривожига бир назар). – Тошкент: Маънавият, 2007. – 36 б.

⁵⁶ Viloyat statistika boshqarmasi joriy arxivi. 2023.

⁵⁷ Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. 1917–1937 йиллар. Масъул муҳаррирлар: Р. Абдуллаев, М. Раҳимов, Қ. Ражабов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 158 б.

⁵⁸ Қашқадарё ҳақиқати. 1986-йил 16 июнь.

⁵⁹ Қашқадарё ҳақиқати. 1990 йил 20 июнь.

⁶⁰ Qashqadaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy pasporti. 2007. – 22 b.

2020-yil yanvari oyi holatida maktabgacha yoshdagi bolalar soni jami 285 871 nafar bo‘lib, shundan 110 532 nafari (38,6) qamrab olingan. Qamrov foizi ikki yil davomida (2018-yildan 2020-yilgacha) 12 foizdan 38 foizga ko‘tarilgan⁶¹.

Qashqadaryo vohasidagi maktablarning aksariyati XX asrning 30–40-yillarida qurilgan bo‘lib, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlari olib borilgan bo‘lsa-da, ammo bu borada o‘z yechimini kutayotgan muammolar talaygina edi.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ta‘lim sohasiga alohida e‘tibor qaratildi. Jumladan, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari soni ham yildan-yilga ortib bordi. Bunga asosan aholining tabiiy ko‘payishi natijasida maktabgacha ta‘lim muassasasi va maktablarga aholining ehtiyoji ortib borishi natijasida amalga oshirildi.

Jumladan, viloyatda umumiy o‘rta ta‘lim maktablari soni 1994-yilda 1000 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 1995-yilda 1021 tani tashkil etgan. Shundan, umumta‘lim maktablarda o‘quvchilar soni 1994-yilda 472,2 mingtani tashkil qilgan bo‘lsa, 1995-yilda 488,5 mingtani tashkil etgan⁶².

2006-yilda esa umumta‘lim maktablarining soni 1103 tani tashkil etib, shundan boshlang‘ich maktablar 8 tani, to‘liqsiz o‘rta maktablar 480 tani, o‘rta maktablar 569 tani, gimnaziya 4 tani, litsey va ixtisoslashgan maktablar 37 tani (shundan internat tipidagi 32 tani, maxsus maktablar 4 tani) tashkil etib, ulardagi o‘quvchilar soni 587,2 ming kishini, o‘qituvchilar soni esa 53852 kishini tashkil qilgan⁶³.

2021-yilda viloyat xalq ta‘limi boshqarmasi tizimida 1157 ta maktab, 16 ta “Barkamol avlod” bolalar maktabi, 2 ta Mehribonlik uyi va xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi faoliyat ko‘rsatgan. 2020-yilda viloyatdagi 47 ming 681 nafar bitiruvchidan 6 ming 25 nafari yoki 12,6 foizi talabalik baxtiga muvaffaq bo‘lishgan⁶⁴.

Kadrlar tayyorlashda hunar texnika bilim yurtlari muhim rol o‘ynagan. Agar 1985-yilda viloyatdagi hunar-texnika bilim yurtlarining soni 47 tani tashkil qilgan bo‘lsa⁶⁵, 1992-yilda ularning soni 49 tani tashkil qilgan⁶⁶.

1997-yil “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim quyidagi turlarda amalga oshirilgan: maktabgacha ta‘lim; umumiy o‘rta ta‘lim; o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi; oliy ta‘lim; oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta‘lim⁶⁷.

Ushbu qonunga ko‘ra, viloyatdagi 1030 ga yaqin maktab bitiruvchilari kasb-hunar kollejlari joylashtirilishi kerak edi. Qashqadaryo viloyatida

⁶¹ Polvonov K. O‘zbekistonda maktabgacha ta‘limning rivojlanishi: o‘zgarish va muammolar (Qashqadaryo viloyati shaharlari talqinida) // Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tizimida O‘zbekiston tarixi va madaniyati. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. – Qarshi, 2022. – 451 b.

⁶² Ўзбекистан в цифрах 1995. Краткий статистический сборник. – Ташкент, 1996. – 49 с.

⁶³ Qashqadaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy pasporti. 2007. – 22 b.

⁶⁴ Qashqadaryo haqiqati. 2020-yil 9-oktabr.

⁶⁵ Қашқадарё ҳақиқати. 1985 йил 31 май.

⁶⁶ Viloyat o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi boshqarmasi joriy arxivi. 2023.

⁶⁷ O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim to‘g‘risidagi qonuni. 1997. – 5 b.

1998-yilda 19 ta kasb-hunar maktablari, 13 ta kasb-hunar kolleji, 4 ta biznes maktabi faoliyat olib borgan⁶⁸. 1999-yilda esa ularning soni 36 tani, ulardagi o‘quvchilar 18,4 ming kishini tashkil qilgan⁶⁹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda qabul qilgan PF–5812-sonli “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”⁷⁰ gi farmoniga va 2020-yil 23-avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”⁷¹ gi qonunga asosan, 2021-yildan boshlab viloyatda boshlang‘ich professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta’lim muassasalari (kasb-hunar maktablari) 34 ta, o‘rta professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta’lim muassasalari (kollejlari) 16 ta, oliy ta’lim muassasalari huzurida tashkil etiladigan texnikumlar 11 ta jami 61 ta ta’lim muassasi faoliyat olib bordi⁷².

Qashqadaryo viloyatida oliy ta’lim haqida gap ketganda, avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, 1986-yilda viloyatda Qarshi davlat pedagogika instituti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish injenerlari instituti va Toshkent politexnika instituti filiallari faoliyat olib borgan⁷³.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-fevraldagi PF–356-sonli “Respublikaning yangi oliy o‘quv yurtlarini tashkil qilish to‘g‘risida”gi farmoniga⁷⁴ ko‘ra Qarshi davlat pedagogika institutiga universitet maqomi⁷⁵, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish injenerlari instituti Qarshi filialiga Qarshi agrar iqtisodiyot instituti maqomi berildi.

1995 yil 3 iyundagi qarori bilan Qarshi agrar-iqtisodiyot instituti va Toshkent Davlat texnika universiteti Qarshi filiali bazalarida Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti tashkil etilgan⁷⁶.

2020/2021-o‘quv yilida Qarshi davlat universiteti bakalavriyatiga davlat buyurtmasi asosida 2275 nafar kunduzgi, 1050 nafar sirtqi bo‘limga, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutiga 2150 nafar kunduzgi, 550 nafar sirtqi bo‘limga, Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti Shahrisabz filialiga 500 nafar kunduzgi, 250 nafar sirtqi bo‘limga, Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filialiga 475 nafar kunduzgi, 150 nafar sirtqi bo‘limga, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti Qarshi filialiga 450 nafar kunduzgi, 200 nafar sirtqi bo‘limga, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filialiga 250 nafar kunduzgi, 100 nafar sirtqi bo‘limlarga talaba qabul qilish rejalashtirilgan⁷⁷.

⁶⁸ Qashqadaryo VDA, 728 fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 3-varaq.

⁶⁹ Qashqadaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy pasporti. 2004. – 21 b.

⁷⁰ <https://lex.uz/ru/docs/4500926>.

⁷¹ <https://lex.uz/docs/5013007>.

⁷² Viloyat o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi boshqarmasi joriy arxivi. 2023-yil.

⁷³ Қашқадарё ҳақиқати. 1986-йил 8-апрель.

⁷⁴ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. – Toshkent, 1992. – №4. – B. 60-61.

⁷⁵ Эгамов Н. Жануб жавоҳири. – Тошкент: Академнашр, 2016. – 33.б.

⁷⁶ Qashqadaryo haqiqati. 2016-yil 2-iyun.

⁷⁷ Qashqadaryo haqiqati. 2020-yil 24-iyul.

Sovet davrida paxta yakkahokimligining o'rnatilishi natijasida tabiat muvozanati buzilib, yer suv, havoning zaharlanishi inson nasli va ruhiyatiga salbiy ta'sir etib, jismoniy va sog'lom kishilar paydo bo'lishiga to'siq bo'ldi⁷⁸.

Shuningdek shifoxona va davolash maskanlarining moslashtirilmagan binolarga joylashtirilishi sog'liqni saqlash sohasida o'ziga xos muammolarni yuzaga keltirdi. Bu holat Qashqadaryo viloyatida ham yaqqol ko'zga tashlangan.

Viloyat sog'liqni saqlash bo'limi faoliyatida katta nuqsonlar ham mavjud edi. Bu esa aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'lgan. Tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha kelayotgan xat va shikoyatlar kamayish o'rniga ko'payib ketgan. Agarda, 1986-yilda viloyat sog'liqni saqlash bo'limiga turli masalalar bo'yicha 708 ta xat kelgan bo'lsa, 1987-yilning to'qqiz oyi ichidagina 735 ta xat kelgan⁷⁹.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng boshqa sohalarida bo'lgani kabi sog'liqni saqlash tizimida ham jiddiy islohotlar amalga oshirilib, ixtisoslashgan tibbiy xizmat, onalik va bolalikni muhofaza qilish, aholini dori vositalari bilan ta'minlash, jismoniy baquvvat va ma'naviy jihatdan sog'lom avlodni kamol toptirish borasida ko'pgina tadbirlar olib borilgan bo'lsa-da, ammo bu sohada o'z yechimini kutayotgan muammolar ham yetarlicha bo'lgan. Shu maqsadda 1994-yili respublikada sog'liqni saqlash sohasi uchun milliy daromadning 4,1 foizi miqdorida mablag' ajratilgan bo'lsa, 2000-yili bu ko'rsatkich 7 foizni tashkil qilgan⁸⁰.

Tibbiyot sohasidagi islohotlar shifo maskanlarini zamon talablari darajasida jihozlash, tibbiy xizmat samaradorligini yanada oshirish imkonini berdi. Umuman, viloyat bo'yicha 1991-yildan 2000-yilgacha 30 ta yangi kasalxona, 31 ta qishloq vrachlik punkti, qurilib aholiga xizmat qildi⁸¹.

2016-yilda viloyatida zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlangan 60 ta shifoxona, 250 dan ziyod qishloq vrachlik punkti va yana ko'plab davolash-profilaktika muassasalari faoliyat yuritiishi natijasida aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi uzaydi, onalar va bolalar o'limi ikki barobardan ortiqqa kamaydi, o'ta murakkab jarrohlik amaliyotlarini ham shu yerda amalga oshirish imkoni tug'ildi⁸².

2020-yilda 15-martdan respublikada koronavirus qayd etilgandan boshlab barcha hududlarda unga qarshi astoydil kurash amalga oshirildi. Qashqadaryoda ham dastlab 14-aprelda kasallikni yuqtirib olgan bemor, ya'ni chiroqchilik 14 yoshli fuqaro 28-aprel kuni kasallikdan butkul forig' bo'lgan⁸³.

Afsuski, 2020-yil 1-iyulda koronavirus infeksiyasi yuqtirgan viloyatdagi bemorlar orasida birinchi o'lim holati qayd etilgan. G'uzor tumanida yashovchi 64 yoshli erkak bemor o'tkir yurak-qon tomir va nafas yetishmovchiligidan vafot etgan. Bemor O'zbekistonda koronavirusdan vafot etgan 27-bemor bo'lgan.

⁷⁸ Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. 1917-1937 йиллар. Масъул муҳаррирлар: Р. Абдуллаев, М. Раҳимов, Қ. Ражабов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 158 б.

⁷⁹ QVDA. 193-fond, 1-ro'uxat, 1036-ish, 5-varaq.

⁸⁰ Мўминова Г. Ижтимоий ҳимоя давлат сиёсатининг бош йўналиши. – Қарши: Насаф, 2007. – 23 б.

⁸¹ Каримов И. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 128 б.

⁸² Qashqadaryo haqiqati. 2016-yil 18-iyun.

⁸³ Qashqadaryo haqiqati. 2020-yil 1-may.

2020-yil 2-iyul soat 17:00 holatiga viloyatda koronavirus infeksiyasi yuqtirganlar soni 201 nafarni tashkil etgan. Ular orasidan 74 nafar bemor davolanib, kasallikdan tuzalib chiqqan⁸⁴.

2021-yilda viloyatda shifoxona muassasalari soni 88 ta bo'lib, ulardagi joylar soni 11213 tani tashkil etgan. Har 1000 ming aholiga 32,9 ta joy to'g'ri kelgan. Shifokorlar soni 3 ming nafarni tashkil qilib, har 10000 aholiga 17,9 nafar shifokor to'g'ri kelgan. Bitta shifokorga 569 ta aholi to'g'ri kelgan. O'rta ma'lumotli tibbiy xodimlarning soni 38,3 ming kishini tashkil etib, har 10000 aholiga 112,3 nafarni tashkil etgan. Bitta o'rta tibbiy xodimga 89 tadan aholi to'g'ri kelgan. Viloyatdagi ambulatoriya-poliklinikalar soni esa, 497 tani tashkil qilib, ularga bir smenada 26540 nafar bemor qatnagan⁸⁵.

Sovet davrida O'zbekistonda, jumladan, Qashqadaryo viloyati shaharlari madaniy hayotida ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Lekin bu o'zgarishlarning hammasi ham ijobiy ko'rsatkichlarga ega emasdi. Buni tumanlarda tashkil etilgan madaniy muassasalar misolida ham ko'rish mumkin.

Odamlarning ma'naviy va madaniy ehtiyojini qondirish uchun sharoit achinarli bo'lgan. Ayniqsa, qishloqlarda madaniyat muassasalari juda kam edi. Viloyatdagi 187 ta klub va madaniyat uylaridan faqat 7 tasi maxsus loyihalangan binoda joylashgan. Usmon Yusupov, Muborak, Nishon, Dehqonobod tuman madaniyat uylari hatto o'zining binosiga ham ega bo'lmagan. 1990 yilda viloyatda 1087 qishloq va posyolkadan 930 tasida kino ko'rsatiladigan joy bo'lmagan⁸⁶.

Viloyatda mavjud 13 ta madaniyat va istirohat bog'larida o'tgan 1992-yil 569-sonda ommaviy tadbirlar o'tkazilib, bu ko'rsatkich 1991-yilga nisbatan 46 taga ko'pdir. Bu kabi ijobiy natijalarga erishishga viloyatning barcha shahar va tumanlarda muvaffaq bo'linmagan. Shuningdek, Dehqonobod, Chiroqchi, Qamashi, Nishon kabi tumanlaridagi istirohat bog'laring ishlari mutlaqo talab darajasida emas. Ko'pchilik bog'lar moddiy-texnika bazasining etishmasligi tufayli iqtisodiy jihatdan qiyin ahvolga tushib qolganlar⁸⁷.

Viloyat miqyosida istirohat bog'lari 2011-yilda viloyatda 6 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2019-yil 17 tani tashkil qilgan, 2011-yilda klub va madaniyat markazlari 118 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2019-yilda madaniyat va aholi dam olish markazlari 59 tani tashkil qilgan⁸⁸. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, istirohat bog'lari soni ko'payib borgan bo'lsa, tumanlarda faoliyat ko'rsatgan klublarning aksariyati tugatilgan va madaniyat hamda aholi dam olish markazlari tashkil etilgan.

Xullas, XX-asrning 80-yillarida viloyatda faoliyat olib borgan madaniyat uylarining moddiy-texnika bazasi anchayin eskirgan bo'lib, zamon talablariga javob bermagan. Mustaqillikning ilk yillarida viloyatda faoliyat olib borgan madaniy klublar faoliyati tugatilib, qaytadan yangi madaniyat uylari tashkil etildi. Qashqadaryo viloyati tumanlarida ham madaniyat uylari faoliyati yo'lga qo'yilib, turli madaniy guruhlar tashkil topdi.

⁸⁴ Qashqadaryo haqiqati. 2020-yil 3-iyul.

⁸⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistik qo'mitasi. O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami. – Toshkent, 2022. – B. 77-79.

⁸⁶ Қашқадарё ҳақиқати. 1990 йил 20 июнь.

⁸⁷ QVDA. 687-fond, 11-ro'uxat, 1-ish, 11-varaq.

⁸⁸ Qashqadaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy pasporti. 2020-yil. – 23 b.

XULOSA

1985–2021-yillarda Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoiti mavzusiga doir tadqiqot natijasida quyidagi **xulosalarga** kelindi:

1. Qashqadaryo vohasi tabiiy va iqlim sharoiti, geografik joylashuvi jihatidan ikki qismga ajratiladi. Vohaning quyi qismi aksariyat keng cho‘ldan (Qarshi cho‘li) iborat bo‘lib (Qarshi, Koson, Muborak, Mirishkor, Nishon tumanlari), yuqori qismi (Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘, Qamashi, Dehqonobod tumanlari) hududlari tog‘lar bilan o‘ralgan. Quyi Qashqadaryoda yaylov uchun keng maydonlarning mavjud bo‘lishi bu yerda chorvachilikni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratib borgan. Yuqori zona tekislik qismida suv manbalarining yetarli bo‘lganligi uchun sug‘orma dehqonchilik, tog‘ va tog‘ oldi hududlarda suv tanqisligi tufayli lalmi dehqonchilik asosiy mashg‘ulotlardan biri hisoblanadi.

